

x x x x



JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY
AND SCIENTIFIC HORIZON

JASSH


JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND SCIENTIFIC HORIZON



Indexes:



x
x
x
x





**Journal of Analytical Synergy and
Scientific Horizon**
Volume 1, Issue 1, Series B 2025

**"JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND
SCIENTIFIC HORIZON" SCIENTIFIC-METHODICAL
JOURNAL**

15.02.2025

In this collection, the articles accepted for the "**journal of analytical synergy and scientific horizon**", Volume-1, Issue-1, 2025, are published.

DOI number was attached to all articles in the journal and indexed in the international scientific bases of **Google Scholar, ResearchGate, ISSN, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar, Advanced Science Index, J-Base, Cite Factor, International Scientific Indexing, Eurasian Scientific Journal Index, General Impact Factor, Internet Archive, Scientific Journal Impact Factor, EuroPub, COPE, General Impact Factor, Slib.uz.**

Dissertations are officially recognized as articles published in national journals on the list of journals recommended to publish the main scientific results of dissertations by OAK.

Basis: Page 3 of the list of scientific publications recommended to publish the main scientific results of dissertations of the Higher Attestation Commission of the Republic of Uzbekistan. - Tashkent: 2019. - 160 p

The materials of the magazine can be used by professors, teachers, independent researchers, doctoral students, masters, students, lyceum colleges and school teachers, scientific workers and all those interested in science.

Reminder! The authors are personally responsible for the correctness of the numbers, reports, data and the correctness of the quotations in the scientific articles included in the collection of journal materials.



**"RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION
HOUSE" LLC**



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir: Sevara Jabborova Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining magistranti

Mas'ul kotib: Boboyorov Sardor Uchqun o'g'li Toshkent tibbiyot akademiyasi Termiz filiali magistranti

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o'g'li Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti magistranti

EDITORIAL TEAM

1. Editor of Historical sciences, **Kholiyarov. Ch, Tulkinjon** - Head of the "Social and Humanities" Department of the Termiz Institute of Engineering and Technology, doctor of philosophy in Historical science. E-mail: txoliyarov@mail.ru
2. Editor of Philology Sciences, **Allamberganova. A. Guljakhan** - Karakalpak State University, Doctor of Philosophy in Philology, Docent of Karakalpak language.
3. Editor of Pedagogical sciences, **Feruza. B. Muzafarova** - Bukhara State University, Doctor of Philosophy in Pedagogical science, Docent in theory and methodology of physical education and sports training
4. Editor of Philology sciences **Mariya D. Bekberganova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
5. Editor of Philological sciences **Zulfiya K. Ktaybekova** - Karakalpak State University, doctor of philosophy in Philology science(PhD)
6. Editor of pedagogical sciences **Eshkoraev Kahramon**- Chirchik state pedagogical University Doctor of Philosophy in pedagogical science, Termez, Uzbekistan e-mail: eshqorayev1987@mail.ru
7. Editor of technical sciences **Rakhmankulov E. Jasur**-Tashkent scientific Research Institute of Innovative Chemical Technology Doctor of Philosophy in technical science. e-mail: jasurer87gmail.com
8. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Jurakhon N. Nadzhiev** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Doctor of Agricultural Sciences DSc.
9. Editor of the Department of Agricultural Sciences **Dilshod T. Jumanov** - Advisor to the Termez Institute of Agricultural Technologies and Innovative Development, Candidate of Agricultural Sciences.
10. Editor-in-chief, **Eshkaraev Sadridin Chorievich** - associate professor of the Department of Analytical Chemistry of Termiz State University, Doctor of Philosophy Chemical Science, Termez, Uzbekistan. esadir_74@rambler.ru



11. Editor of medical sciences **Ye Fan Wang Glavin**, Case Western Reserve University, United States / Chinese Academy of Medical Sciences, Peking Union Medical College, China
12. Editor-of technical science, **Eshkaraev Ulugbek Chorievich** - Associate Professor of the Department of Primary Education Methodology of Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy, Candidate of Technical Sciences, Denau, Uzbekistan.
13. Editor of medical sciences **Carolyn Steele Gray**, Canada Research Chair in Implementing Digital Health Innovation (Tier 2), Canada.
14. Editor of chemical sciences **Mirabbos Hojamberdiev Ikromovich**- associate professor of the Technische Universität Berlin, doctor of chemical science, Berlin, Germany
15. Editor of Sociology science **Eryigitova Lobar Qodirovna** Head of the Department of Social Sciences and Physical Culture of CAMU International Medical University
16. Editor filological sciences **Jurayeva Ramziya Abdurahimovna** Kokand State Pedagogical Institute. Kokand, Uzbekistan Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), senior teacher.
17. Editor of Humanitarian science **Rakhmonov Abdukahhor Abdusattorovich**
Vice-Director for Spiritual Education and Youth Affairs, Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophical Sciences
18. Editor of technical sciences **Hasan Soyibnazarovich Beknazarov** Leading researcher of the Tashkent Research Institute of Chemical Technology, doctor of technical sciences, professor.
19. Editor of medical sciences **Akhmedov Kamoliddin Khakimovich** Dean of the Faculty of Treatment No. 1 of the Termiz branch of the Tashkent Medical Academy, Candidate of medical sciences, associate professor
20. Editor of medical sciences **Vahidov Alisher Shavkatovich** Termez branch of Tashkent Medical Academy General surgery, children head of the department of surgery and pediatric urology Doctor of medical sciences, professor



FUQAROLARNING TIBBIY XIZMATDAN FOYDALANISH HUQUQI VA UNING KAFOLATLARI

QXU Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari
va huquq ta'limi yo'nalishi 3-bosqich
talabasi **Turdiyev Abdulfayz**

Annotatsiya: Mazkur maqola fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi va ushbu huquqning davlat tomonidan kafolatlanishi masalalariga bag'ishlangan. Tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi inson huquqlari tizimining ajralmas qismi bo'lib, sog'liqni saqlashga oid xalqaro konvensiyalar va milliy qonunchilik orqali kafolatlanadi. Maqolada tibbiy xizmatdan foydalanishdagi tenglik, sifatli tibbiy xizmatni ta'minlash va uning iqtisodiy-ijtimoiy omillarga bog'liqligi yoritiladi. Shu bilan birga, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqining buzilishi holatlari va ularning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Tibbiy xizmat, fuqarolik huquqlari, sog'liqni saqlash kafolatlari, xalqaro konvensiyalar, ijtimoiy tenglik, milliy qonunchilik, davlat majburiyatlari.

Аннотация: Данная статья посвящена вопросам права граждан на пользование медицинскими услугами и государственной гарантии этого права. Право на доступ к медицинской помощи является неотъемлемой частью системы прав человека и гарантируется международными конвенциями в области здравоохранения и национальным законодательством. В статье подчеркивается равенство в использовании медицинских услуг, предоставлении качественных медицинских услуг и его зависимость от экономических и социальных факторов. При этом анализируются случаи нарушений права на пользование медицинскими услугами и меры их предотвращения.

Ключевые слова: Медицинское обслуживание, гражданские права, гарантии здоровья, международные конвенции, социальное равенство, национальное законодательство, государственные обязательства.

Annotation: This article is devoted to the issues of citizens' right to use medical services and state guarantee of this right. The right to access medical care is an integral part of the human rights system and is guaranteed by international conventions on health and national legislation. The article highlights equality in the use of medical services, provision of quality medical services and its dependence on



economic and social factors. At the same time, cases of violations of the right to use medical services and measures to prevent them will be analyzed.

Key words: Medical service, civil rights, health guarantees, international conventions, social equality, national legislation, state obligations.

Har bir insonning sogʻligʻi – jamiyatning eng muhim qadriyatlaridan biri hisoblanadi. Fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi nafaqat ularning shaxsiy farovonligini taʼminlashda, balki mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida ham katta ahamiyat kasb etadi. Ushbu huquq Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi” (25-modda) va “Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro pakt” (12-modda) orqali himoyalangan. Bu huquq davlatlar zimmasiga fuqarolarga teng va sifatli tibbiy xizmatni taqdim etish majburiyatini yuklaydi.

Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 48-moddasida belgilangan bizning madaniy huquqlarimizdan, fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi kafolatlangan. Shuningdek, "Fuqarolarning sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida"gi Qonun va sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilish boʻyicha davlat dasturlari orqali ushbu huquqning amaliy taʼminoti yoʻlga qoʻyilgan. Ammo tibbiy xizmatdan foydalanishda tenglikni taʼminlash, qishloq va shahar hududlaridagi sogʻliqni saqlash infratuzilmasi oʻrtasidagi tafovutlarni bartaraf etish, sifatli dori-darmonlardan foydalanish imkoniyatini oshirish kabi qator dolzarb masalalar mavjud.

Global miqyosda sogʻliqni saqlash tizimi xalqaro hamkorlikni talab etuvchi soha boʻlib, Jahon sogʻliqni saqlash tashkiloti tomonidan ishlab chiqilgan strategiyalar davlatlarga tibbiy xizmat sifatini oshirishda yordam beradi. Taraqqiy etayotgan davlatlar uchun ayniqsa, tibbiy xizmatni moliyalashtirish, kadrlar yetishmasligi va texnologik rivojlanishning sustligi kabi muammolarni hal qilish muhimdir.

Mazkur maqolada fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini taʼminlashning huquqiy asoslari, davlat kafolatlari, xalqaro va milliy tajriba hamda mavjud muammolarni bartaraf etish yoʻllari batafsil tahlil qilinadi. Shu orqali sogʻliqni saqlash sohasida adolat va barqarorlikka erishish imkoniyatlari oʻrganiladi. Bu mavzu nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ham ega boʻlib, insonlarning asosiy ehtiyojlarini qondirishda sogʻliqni saqlash tizimining roli va samaradorligini koʻrsatishga qaratilgan.



Konstitutsiyamizda inson salomatligi kabi bebaho ne'matga maxsus to'xtalinib, har bir insonning malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini qonunda belgilangan tartibda davlat hisobidan olishga haqli. Davlat sog'liqni saqlash tizimini, uning davlat va nodavlat shakllarini, tibbiy sug'urtaning har xil turlarini rivojlantirish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligini ta'minlash choralarini ko'radi. Davlat jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Ushbu konstitutsiyaviy normani amalda to'laqonli ro'yobga chiqarish maqsadida "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida", "Aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi to'g'risida", "Aholini sil kasalligidan muhofaza qilish to'g'risida", "Aholi o'rtasida mikronutrient yetishmasligi profilaktikasi to'g'risida", "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida", "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida" kabi qonunlar qabul qilindi.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida" qonunining **2- moddasida** fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari belgilangan. Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risidagi qonunchilikning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: fuqarolarning sog'liqni saqlashga doir huquqlari davlat tomonidan kafolatlanishini ta'minlash; fuqarolarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish; davlat organlari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, jamoat birlashmalarining fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solish.

3-modda. Fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari - Fuqarolar sog'lig'ini saqlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

- sog'liqni saqlash sohasida inson huquqlariga rioya qilinishi;
- aholining barcha qatlamlari tibbiy yordamdan bahramand bo'la olishi;
- profilaktika chora-tadbirlarining ustunligi;
- sog'lig'ini yo'qotgan taqdirda fuqarolarning ijtimoiy himoya qilinishi;
- tibbiyot fanining amaliyot bilan birligi.

Bu qonunning eng e'tiborga molik jihati shundaki II bob. Fuqarolarning sog'ligini huquqiy jihatdan muhovaza qilish. 13-modda. Fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari sog'liqni saqlash borasida daxlsiz huquqqa egadirlar. Davlat yoshi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e'tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar fuqarolarning sog'lig'i saqlanishini



ta'minlaydi. Davlat fuqarolarda kasalliklarning har qanday shakllari borligidan qat'i nazar, ularning kamsitishlardan himoya qilinishini kafolatlaydi. Ushbu qoidani buzishda aybdor bo'lgan shaxslar qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladilar.

14-modda. Ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning sog'liqni saqlash huquqi. O'zbekiston Respublikasi hududidagi ajnabiy fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqi O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalariga muvofiq kafolatlanadi. O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, sog'liqni saqlashda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari bilan teng huquqdan foydalanadilar. Ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatib o'tilgan shaxslarga tibbiy yordam ko'rsatish tartibini O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi belgilaydi.

Hayotimizning har bir lahzasida biz qonunda duch kelamiz, bizning bu kabi huquqlarimiz borligi, davlat tomonidan himoya qilinayotganimizni anglatadi. Va shuni ham ta'kidlash joizki O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddima qismida yozilgani kabi "Respublika fuqarolarining salomatligini muhofaza qilish va qadr-qimmatini yuksak qadrlash orqali ularning munosib hayot kechirishlarini ta'minlashga intilib, insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etishni maqsad qilganmiz." Bu shaklda davlatning inson salomatligi va qadr-qimmatini ta'minlash borasidagi maqsadi alohida ta'kidlangan.

Davlat sog'liqni saqlashning davlat, xususiy va boshqa tizimlarini rivojlantirish bo'yicha zarur chora-tadbirlar ko'rishi, sanitariya-epidemiologik osoyishtalikni kafolatlashi, tibbiy sug'urtaning turli shakllarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratishi belgilanib, Orolbo'yining ekologik tizimini muhofaza qilish va tiklash, uni ijtimoiy, iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rishi nazarda tutilmoqda.

Eng quvonarli holat shundaki inson salomatli borasida sòz borar ekan, bu faqat birgina qonunchilik, birgina yuqori turuvchi organ tomonidan emas, balki kòplab qonunlar, mahalla, hokimiyat, vazirliklar va mas'ul shaxslar tomonidan huquqlarimiz kafolatlanishi bu bizning yutuğimiz va demokratiyaning yana bir kichik kòrinishi desak mubolağa bòlmaydi. Yana bir qonunchilik hujjatini nazardan chetda qoldirib bòlmaydi, bu "Jamiyat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati to'g'risida" Vazirlar Mahkamasining qaroriga kòra, Odamlarning sog'lig'ini mustahkamlash va saqlash, sog'lom turmush tarzi tamoyillarini joriy etish, kasalliklarning oldini olish va ular profilaktikasi, kasalliklarni davolash siyosatidan ustun darajada kasalliklarning oldini olish va ular profilaktikasi siyosatiga qayta yo'nalish olish - jamiyatda aholi salomatligini tashkil



etish tizimini shakllantirishning asosiy maqsadi deb belgilanishi, bizning yana bir yutuğimizdir.

Bugungi kunda dunyo oldida turli murakkab muammolar paydo bo'lmoqda. Epidemiya, ekologik inqiroz, havo ifloslanishi va global isish kabi masalalar nafaqat insonlarning salomatligiga, balki tabiat va iqtisodiyotga ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun birgalikda ishlash va barqaror yechimlarni topish zarur.

Epidemiyalar inson salomatligi, iqtisodiyot va ijtimoiy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazadi. Ularning tarqalishi bir necha omillar bilan bog'liq:

1. Globalizatsiya va harakatchanlik: Jahon bo'ylab odamlarning tez-tez safar qilishi (turizm, migratsiya, ish safari) viruslarning keng tarqalishiga sabab bo'ladi. Masalan, COVID-19 pandemiyasi qisqa vaqt ichida butun dunyoga tarqaldi.

2. Sog'liqni saqlash tizimidagi kamchiliklar: Rivojlanayotgan mamlakatlarda kasalxona va laboratoriyalar etishmasligi epidemiyalarning nazoratdan chiqishiga olib keladi. Malakali tibbiyot xodimlari yetishmovchiligi ham katta muammo.

3. Noo'rganilgan viruslar va mutatsiyalar: Har yili yangi viruslar paydo bo'ladi yoki avvalgi viruslar mutatsiyaga uchraydi, masalan, SARS-CoV-2 va uning yangi variantlari.

4. Axborot yetishmasligi va noto'g'ri ma'lumotlar: Odamlar orasida noto'g'ri qarashlar (masalan, vaksina qarshiligi) profilaktika va davolash jarayonlariga to'sqinlik qiladi va bunda Vaksina va dorilarning ishlab chiqilishi va tarqatilishi; Jahon sog'liqni saqlash tashkilotlari orqali global vaksina dasturlarini joriy etish; Ilmiy-tadqiqot markazlariga ko'proq investitsiya ajratish kiradi.

Xo'sh, infeksiya tarqalishini monitoring qilishga nimalar kiradi?

- Global epidemiyalarni nazorat qilish uchun kuzatuv tarmog'ini kuchaytirish uchun bugungi kunda sun'iy intellekt yordamida epidemiyaning oldindan bashorat qilish tizimlarini joriy qilish maqbulroq yechim bo'la oladi.
- Davlatlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, resurslar va bilimlarni bo'lishish, pandemiya vaqtida ehtiyojmand davlatlarga insonparvarlik yordamini tashkil qilish mumkin.
- Sog'liqni saqlash tizimini kuchaytirishda esa qishloq va chekka hududlarda zamonaviy klinikalar qurish, tibbiyot xodimlarini muntazam ravishda tayyorlash va ularni qo'llab-quvvatlash samaralidir.



- Aholini xabardor qilishda axborot kampaniyalari orqali profilaktika choralarining ahamiyatini tushuntirish va noto'g'ri ma'lumotlarning oldini olish uchun ishonchli manbalarni targ'ib qilish lozim.

Orol bo'yi masalasi. Orol dengizining qurib borishi inson tomonidan amalga oshirilgan noto'g'ri suv resurslarini boshqarish bilan bog'liq bo'lib, keng ekologik va iqtisodiy muammolarga sabab bo'ldi.

1. Ekologik o'zgarishlar: Dengizning qurishi tufayli sho'r zamin maydoni kengaydi va qishloq xo'jaligiga yaroqsiz holga keldi va quruqlikda paydo bo'lgan tuz va qum bo'ronlari atrof-muhitni ifloslantirdi.

2. Sog'liq muammolari: Chang bo'ronlari tufayli mahalliy aholida nafas yo'llari kasalliklari, allergiya va saraton xavfi oshdi va Ichimlik suvining sifati pasaygani natijasida boshqa kasalliklar paydo bo'ldi.

3. Iqtisodiy inqiroz: Baliqchilik sanoatining yo'qolishi minglab odamlarni daromadsiz qoldirdi va turizm va qishloq xo'jaligi sohalari rivojlanmayapti.

Bunday holatlarga qanday yechimlar keltirishimiz mumkin?

1. Ekotizimni tiklash dasturlari: Qurg'oqchil hududlarga chidamli o'simliklarni, masalan, saxsaul yoki yulg'un ekish va bo'sh yerlarni o'rmonlashtirish orqali tuproqni eroziyadan himoya qilish.

2. Suv resurslarini boshqarish: Amudaryo va Sirdaryodan suv oqimini Orol dengiziga yetkazish bo'yicha xalqaro bitimlar tuzish va suvni tejevchi texnologiyalarni (tomchilatib sug'orish) qishloq xo'jaligida keng qo'llash.

3. Mahalliy aholini qo'llab-quvvatlash: Baliqchilikdan boshqa iqtisodiy imkoniyatlar (masalan, hunarmandchilik, xizmat ko'rsatish sohalari) yaratish va ta'lim va trening dasturlari orqali yangi kasblarni o'rgatish.

4. Ilmiy-tadqiqot ishlari: Orol dengizi hududida ekologik monitoring tizimini yaratish va texnologiyalar yordamida degradatsiyaga uchragan yerlarni qayta foydalanishga kiritish.

Havo ifloslanishi. Havo ifloslanishi sanoat inqilobidan boshlab tobora jiddiylashib bormoqda. Bu jarayon ko'plab global muammolarni keltirib chiqaradi:

- Sanoat chiqindilari, avtomobillar va elektr stansiyalari asosiy ifloslanish manbalaridir.
- Yoqilg'i (ko'mir, neft) yoqilishi havoni uglerod dioksid va boshqa zararli gazlar bilan to'ldiradi.



Albatta salbiy tomonlari ham mavjud bo'lib, nafas olish tizimi kasalliklari, astma va yurak-qon tomir kasalliklarining ko'payishi, iqlim o'zgarishi va issiqxona effektining kuchayishiga sabab bo'ladi. Bu kabi holatlarni oldini olish uchun esa quyidagilarni keltirishimiz mumkin:

- Quyosh, shamol va gidroenergetikaga sarmoya kiritish.
- Atom elektr stansiyalarini rivojlantirish orqali uglerod chiqindilarini kamaytirish.
- Elektromobillar va ommaviy transportdan foydalanishni rag'batlantirish.
- Shahar infratuzilmasida piyodalar va velosiped yo'laklari qurish.
- Chiqindilarni filtrlash texnologiyalarini joriy etish.
- Zavod va fabrikalarda chiqindilarni qayta ishlashni kuchaytirish.
- Parij bitimi kabi global kelishuvlarda qatnashish va uglerod chiqindilarini kamaytirish majburiyatlarini bajarish.

Har bir muammo bo'yicha keltirilgan tahlillar va yechimlar real hayotda kompleks va uzoq muddatli yondashuvni talab qiladi. Shu bilan birga, har bir inson o'z hayotida kichik o'zgarishlar kiritib, global muammolarni hal qilishga xissa qo'shishi mumkin.

Fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi har bir jamiyatda asosiy konstitutsiyaviy huquqlardan biri bo'lib, u insonning sog'lig'ini saqlash va hayot sifatini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Davlat tomonidan ushbu huquqni kafolatlash va tibbiy xizmatlarga teng kirishni ta'minlash ijtimoiy adolat va barqarorlikning asosi hisoblanadi. Biroq, zamonaviy dunyo global muammolar bilan yuzma-yuz kelar ekan, bu huquqni samarali amalga oshirish yanada murakkablashmoqda. Fuqarolarning tibbiy xizmatdan foydalanish huquqini to'liq amalga oshirish global muammolarni hal qilish bilan chambarchas bog'liqdir. Epidemiyalarni nazorat qilish uchun davlatlar o'zaro hamkorlikni mustahkamlashi, ekologik xavfsizlikni ta'minlash uchun esa sanoat chiqindilarini kamaytirish va yashil energiyaga o'tishni jadallashtirishi lozim. Shu bilan birga, aholining tibbiy xizmatlarga bo'lgan kirishini yaxshilash uchun qishloq va chekka hududlarda zamonaviy tibbiy markazlar tashkil etish, tibbiy xizmat sifatini oshirish va profilaktikaga ustuvor ahamiyat berish zarur. Yakuniy xulosa shuki, fuqarolarning sog'liqni saqlash huquqini himoya qilish nafaqat davlatning ichki siyosatidagi muhim vazifa, balki global muammolarni hal qilish yo'lida dunyo hamjamiyatining umumiy maqsadiga aylanishi kerak. Bu huquqni kafolatlash orqali biz nafaqat bugungi avlod, balki kelajak avlodning ham sog'lom va barqaror hayot kechirishiga



po'ydevor yaratamiz. Shu bois, davlatlar, jamiyatlar va har bir inson o'z mas'uliyatini anglab, bu yo'nalishda birgalikda harakat qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ròyxati

- 1) lex.uz/mact/-26013 <https://lex.uz/mact/-26013>
- 2) lex.uz/acts/-20596 <https://lex.uz/acts/-20596>
- 3) Inson manfaatlari konstitutsiyasi
https://constitution.uz/oz/pages/Inson_manfaatlari
- 4) Олий Мажлис Қонунчилик палатаси <https://parliament.gov.uz/articles/588>
- 5) 266-сон 10.05.2017. Jamiyat salomatligi va sog'liqni saqlashni tashkil etish ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati to'g'risida <https://lex.uz/uz/docs/-3199754?ONDATE=15.05.2017&ONDATE2=15.02.2018&action=compare>
- 6) Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar
<http://www.insonhuquqlari.uz/oz/menu/itisodij-izhtimoiy-va-madaniy-uular>
- 7) Ўзбекистон Миллий ахборот агентлиги - расмий хабарлар, тезкор янгиликлар, таҳлилий-танқидий материаллар, қонун ҳужжатлари, фото ва видеорепортажлар https://uza.uz/oz/posts/yangi-konstitutsiyada-bepul-tibbiy-yordamning-kafolatlari_389308
- 8) Shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik huquq va erkinliklar, ularning kafolatlari. » Xorazm viloyati Yuridik Texnikumi <https://xvyut.uz/axborot-xizmati/e039lonlar/maqolalar/531-shaxsiy-iqtisodiy-ijtimoiy-hamda-ekologik-huquq-va-erkinliklar-ularning-kafolatlari.html>



**Demokratiya, qancha salbiy tarafi bo'lsa ham,
baribir avtokratiyadan yaxshiroq**

Shohruh Obidjonovich Abdurasulov

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy-odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: abdurashulovshohruh@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada demokratiyaning nima keragi bor? Rivojlanayotgan mamlakatlar uchun an'anaviy avtokratiya yaxshiroq emasmi? kabi savollarga javob ochib beriladi. Jahon mamlakatlaridagi turli xil siyosiy tuzumlar misolida ko'rsatilib, demokratiyaga baho va talqinlarga qarama-qarshi o'laroq obyektiv baho beriladi.

Kalit so'zlar: Demokratiya, avtokratiya, iqtisodiy rivojlanish, vakillik, mustabid, tuzum, liberal demokratiya.

Аннотация: В чем смысл демократии в этой статье? Разве традиционное самодержавие не лучше для развивающихся стран? будут раскрыты ответы на такие вопросы, как На примере различных политических режимов в странах мира дается объективная оценка демократии в противовес оценке и интерпретациям.

Ключевые слова: Демократия, самодержавие, экономическое развитие, представительство, деспотизм, режим, либеральная демократия.

Abstract: What is the meaning of democracy in this article? Isn't traditional autocracy better for developing countries? The answers to such questions will be revealed, as using the example of various political regimes in the countries of the world, an objective assessment of democracy is given as opposed to assessment and interpretation.

Keywords: Democracy, autocracy, economic development, representation, despotism, regime, liberal democracy.



Insoniyat yaratilganidan beri o'zining huquqlarini amalga oshirish uchun harakat qilib kelgan. Insonlar o'z huquqlarini ta'minlay oladigan va himoya qilaoladigan mukammal tuzum yaratishga harakat qilib keldi. Hozirgi davrga kelib insoniyat butun tarixi davomida yaratgan tuzumlaridan eng mukammali demokratiya bo'lib turibdi. Lekin demokratiya ham mukammal emas. Hozirda dunyo kundan-kunga rivojlanib bormoqda. Balki ming yillar o'tib insoniyat demokratiyadan ham mukammal tuzumni yarata olar. Buni esa biz bilmaymiz. Lekin, hozirgi davrda ham ba'zi jamiyatlar borki avtokratiya demokratiyadan afzalroq degan fikrni olg'a surishadi. Insoniyatning kata qismi esa demokratiya har qanday avtokratiyadan ustun degan fikrni qo'llab quvvatlaydi. Biroq, demokratiya ustun bo'layotgan davrda ham dunyo davlatlarning ko'pchiligida inson huquqlari poymol bo'lmoqda. Freedom Housening [“Dunyoda erkinlik 2024” hisoboti](#) dunyodagi erkinlik darajasi ketma-ket 18 yildan beri kamayib borayotganini tasdiqlaydi. So'nggi o'n yillikda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosiy va fuqarolik huquqlarining ustuvorligi sezilarli kamaydi. Narendra Modi davrida Hindiston ham, afsuski, shunday mamlakatlar qatoriga kirdi. Bu kamayishni tezroq iqtisodiy o'sish uchun to'lanadigan badal desa bo'ladimi? Keng ma'noda olib qaralsa, umuman bunday emas. Agar resurslarga boy ba'zi mamlakatlarni, shuningdek, Gonkong va Singapurni hisobga olmasak, dunyoning barcha boy mamlakatlari liberal demokratiya hisoblanadi. Bu haqiqatan ham tasodifmi?

Shunga qaramay, ayrim kishilar, avvalgidek, demokratiya kambag'al mamlakatlar boyishi uchun eng yaxshi vosita emas, deyishi mumkin. Ular, misol tariqasida, Xitoyning so'nggi 40 yil davomidagi hayratlanarli o'sishini keltirishi mumkin. Lekin bu fakt ularning nuqtai nazarini quvvatlamaydi. 2019-yilda e'lon qilingan Daron Ajemo'g'li va boshqa mualliflarning [“Demokratiya iqtisodiy o'sishga sabab bo'ladi”](#) nomli maqolasi demokratiyaning kelajakdagi jon boshiga YAIMga



iqtisodiy va statistik jihatdan sezilarli darajada ijobiy ta'siri borligini tasdiqlaydi. Qayd etilishicha, "demokratiyalashuvdan keyingi 25 yil ichida davlatlar YAIM 20–25 foizga oshadi". Qayd etib o'tish lozimki, bu rivojlanishning erta bosqichidagi mamlakatlar uchun ham taalluqli.

2019-yil [Karl Henrik Knutsen](#) V-Dem instituti uchun yozgan tavsifnomasida qayd etilishicha, avtokratiyalarning qayd etgan natijalari o'rtasidagi farq ancha kattaligi ekanligi aniqlagan. Ya'ni, avtokratlar yaxshi bo'lgan vaqtda, ular haqiqatan ham ancha yaxshi bo'lishi mumkin. Lekin ular yomon bo'lganida haqiqiy dahshat bo'ladi. Masalan, Stalin, Gitler, Pol Pot va Mao Szedun millionlab insonlarni o'ldirdi. Balki bunga ular buni istashgani sabab bo'lgandir, balki ular bunga befarqlik bilan qaragani tufayli shunday bo'lgandir. Masala shundaki, avtokratiyada hukumat xalq oldida hisobdor bo'lmaydi. Hisobdor bo'lmagan hukumat esa istalgan ishni qilishi mumkin.

Tarixchi Timoti Snayder maqolasida "qattiqqo'l rahbar boshqaruvi xomxayol" ekanini [tasdiqlaydi](#). Bu fikrning muhim g'oya shundaki, „qattiqqo'l rahbar“ sizning odamingiz bo'lishi lozim. Lekin unday bo'lmaydi. Demokratiya sharoitida saylangan vakillar saylovchilarni tinglaydi. Biz buni shunday bo'lishi kerak bo'lgan odatiy narsadek qabul qilamiz va diktator ham bizning oldimizda hisobdordek tasavvur qilamiz. Lekin sizning u uchun bergan ovozingiz, sizning ahamiyatsiz ekaningizni tasdiqlaydi. Masala shundaki, „qattiqqo'l rahbar“ bizning oldimizda hisobdor emas. Bizni tahqirlashadi va biz bunga ko'nikamiz. Aslida vaziyat bundan ham yomon bo'ladi. Ehtimoliy monarx — fuqarolar farovonligi uchun mos odam emas. Uni deyarli har doim hokimiyat istagi boshqaradi. Agar u o'zi qidirgan narsasiga ega chiqsa va telbaga aylansa, undan qanday qutulish mumkin? Qanday qilib unga qarshi bo'lgan institutlarni saqlab qolish mumkin? Hokimiyat qo'ldan-



qo'lg'a o'tishini qanday boshqarish mumkin? Konstitutsion monarxiya ish berishi mumkinini bilamiz. Avtokrat, qonun ustuvorligi va mulk huquqi himoyasi zarur ekanini anglagani holda, Singapur kabi kichik mamlakatni yaxshi boshqarishi mumkinligini tarixdan ma'lum. Janubiy Koreya va Tayvanda tezkor rivojlanishning dastlabki yillari avtokratlar nazorati ostida o'tganini bilamiz. Shuningdek, biz Den Syaopin Xitoyda o'z hokimiyatidan salbiy yo'lda foydalanmagan yetakchi bo'lganini ham bilamiz. Ya'ni, xitoyliklar ta'kidlaydiganidek, sizda "[yaxshi imperator](#)" ham bo'lishi mumkin. Lekin, ko'p hollarda bo'lgani kabi, peshonaga "yomon"i yozilgan bo'ladi.

Demokratiya shunday ayanchli oqibatlarining oldini oladi, chunki uning o'zini to'g'irlab turuvchi ichki metodlari mavjud. Demokratiya sharoitida — ko'p mamlakatlarda bo'lgani kabi — nodemokratik fuqarolik, siyosiy va yuridik huquqlar yuzaga kelgan taqdirda ham, saylovlar vaziyatni o'zgartira oladi. Buning haqiqat ekani [Polshada](#) va [Turkiyada](#) o'z isbotini topdi. Saylovlar Hindistonda ham tiyib turuvchi omil hisoblanadi. Parlamentar tizimlarda parlament a'zolari rahbarga qarshi oyoqqa turishi mumkin. Bunga misol Buyuk Britaniya.

Demokratiya foydasiga keltiriladigan eng asosiy dalil — uning yaxshi boshqaruvni yaratishi emas, balki yomon boshqaruvning oldini olishidir. Bu esa, rahbarsizlik — hech qanday boshqaruv yo'qligini inobatga olmaganda, jamiyatda kuzatilishi mumkin bo'lgan eng yomon narsa. Huquqlar to'plami qanchalik to'la bo'lsa, cheklovlar ham shunchalik kuchli bo'ladi: o'shanda ochiq debatlar, norozilik bildirish erkinligi, erkin matbuot va mustaqil institutlar ham mavjud bo'ladi.

Demokratiya har doim nozik narsa bo'lgan. U shunisi bilan nozikki, ba'zi kishilar mustabid bo'lishni va juda ko'pchilikning ularga ishonishini istaydi. Agar demokratiya odamlarga ular istagan narsani — daxldorlik hissi, xavfsizlik, ular qadrlaydigan boshqa narsalarni bera olmasa, mustabid tuzumning hokimiyat



tepasiga kelishi ehtimoli yana oshadi. Yasha Munk o‘z kitobi (“[The Identity Trap](#)”)da ta’kidlaganidek, demokratiya tengsizlik va xilmaxillik yuqori bo‘lgan jamiyatlarda ayniqsa nozik bo‘ladi, bunda potensial tiranlarning shu ziddiyatlardan foydalanishga urinishi ham katta o‘rin tutadi. Darhaqiqat, Sharun Mukand va Deni Rodrik ta’kidlanganidek, bunday jamiyatlarda liberal demokratiya yaratish qiyin kechadi.

Ba’zi insonlar demokratiya yaqin tarixda mukammallasha boshladi degan fikrni yoqlashadi. Demokratiya yaqinda paydo bo‘la boshladi, degani uning qadri yo‘q ekanini anglatmaydi. Bu — demokratiya mukammal bo‘lmagan taqdirda ham, hukumat hisobdorligini va odamlarning ovoz berish huquqini ta’minlaydi. Bu biz uchun monarx va qirollarning har turli salbiy qiliqlariga chidashdan ko‘ra ancha yaxshi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Financial Times nashri. The inspiring resilience of democracy // <https://www.ft.com/content/529bce74-ca7c-4541-9dd0-a176fa5487f3>
2. Deni Rodrik. [The Political Economy of Liberal Democracy](#). London. 2020.
3. Sh.A. Saydullayev. Davlat huquq nazariyasi. T. Adolat, 2022.- 248 bet.
4. Исломов З.М. Давлат ва ҳуқуқ назарияси. Т.: Адолат, 2007. – 916 бет.
5. Yascha Mounk. [The Identity Trap](#). London. 2022.
6. Angel Austin. Demokratiya belgilari. Qo‘llanma. 2024.



MUXTOR ASHRAFIY UY MUZEYI: MADANIYAT VA TARIX TUTASHGAN MASKAN

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn
instituti Muzeyshunoslik muzey menejmenti va madaniy
turizm yo'nalishi 3-kurs talabasi
Arman Yunusov Fayzulla o'g'li

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muxtor Ashrafiy uy muzeyining tashkil etilishi, undagi eksponatlarning madaniy va tarixiy ahamiyati, shuningdek, muzeyning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni haqida fikr yuritiladi. Bu maskan milliy san'atimiz va tariximizning ajralmas qismi sifatida xalqimiz ma'naviy boyligini namoyish etuvchi muhim o'choq ekanligi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Muxtor Ashrafiy, muzey, ekspozitsiya, ijod, kolleksiya

Аннотация: В данной статье рассматривается создание Дома-музея Мухтара Ашрафи, культурно-историческое значение экспонатов в нем, а также роль музея в воспитании подрастающего поколения. Подчеркивается, что это место является важным очагом, демонстрирующим духовное богатство нашего народа как неотъемлемую часть нашего национального искусства и истории.

Ключевые слова: Мухтар Ашрафи, музей, экспозиция, творчество, коллекция.

Abstract: This article examines the creation of the Mukhtar Ashrafi House Museum, the cultural and historical significance of its exhibits, as well as the museum's role in educating the younger generation. It is emphasized that this place is an important hearth, demonstrating the spiritual wealth of our people as an integral part of our national art and history.

Keywords: Mukhtar Ashrafi, museum, exposition, creativity, collection

O'zbekiston san'atida o'zbek milliy musiqasining rivoji va yangi bosqichga ko'tarilishida Muxtor Ashrafiy kabi buyuk san'atkorlarning roli beqiyosdir. U yaratgan musiqiy asarlar xalq qalbidan joy olib, milliy o'zlikni namoyish etdi. Kompozitor hayoti va ijodiy faoliyati haqida bilish, uning asarlarini o'rganish va avlodlarga yetkazish maqsadida tashkil etilgan Muxtor Ashrafiy uy muzeyi bugungi kunda madaniyat va tarix tutashgan noyob maskan sifatida e'tirof etiladi. Ushbu muzey san'at ixlosmandlarini milliy meros bilan tanishtirishga xizmat qilmoqda.

Muxtor Ashrafiy uy muzeyi uning hayoti va ijodini abadiylashtirish maqsadida tashkil etilgan. Muzey binosi kompozitor yashagan va ijod qilgan muhitni aks ettiradi. Ushbu maskan san'at ixlosmandlarini Ashrafiy ijodiy olamiga



chuqur kirib borishga ilhomlantiradi. Muzeйда Ashrafiy foydalanilgan shaxsiy buyumlar, musiqa asboblari va uning ijodiy jarayonini yorituvchi nodir hujjatlar joy olgan.

Muhokama va natijalar bilan tanishadigan bo'lsak, Uy-muzey 1982 yil 11-iyunda bastakor tavalludining 70 yilligi munosabati bilan ochilgan. U Muxtor Ashrafovichning 1967-1975 yillarda yashab ijod qilgan xonadonida yaratilgan bo'lib, unda “Muhabbat tumori”, “Temur Malik” baletlari, “Rustam ertagi” oratoriyasi va bir qator simfonik asarlar sahnalashtirilgan. Yaratilgan. Muzeyning tashkil etilishi tashabbuskori M.Ashrafiy oilasi, ya'ni uning o'g'li, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan me'mor Feruz 1980-yillarda Madaniyat vaziri o'rinbosari bo'lib ishlagan va Toshkentda memorial uy-muzeylarni tashkil etish tashabbuskori bo'lgan.¹

Muzey binosi ikki qavatli. Shuningdek, yerto'la xonasi ham mavjud bo'lib, u 50 o'rinli konsert zaliga aylantirilgan. Muzeyning umumiy maydoni 260 kvadrat metrni tashkil qiladi.

Muzey kolleksiyasining asosini M. Ashrafiyning 1930–1970-yillarni qamrab olgan va tarixchilar, musiqashunoslar, o'zbek musiqa madaniyati bilan qiziquvchi barchani qiziqtirgan shaxsiy arxivi tashkil etadi. Muzeйда qimmatbaho qo'lyozmalar, notalar, partituralar, plakatlar, ijro dasturlari, fotosuratlar, hujjatlar, plastinalar, shaxsiy buyumlar, o'zbek cholg'u asboblari kolleksiyasi (xalq ustasi A. Zokirov yasagan chang, rubob va surnay), shuningdek, Frederik Shopenning noyob musiqa asari mavjud. Muzeyning o'ziga xos eksponati o'zbek musiqasida birinchi simfonik partitura tovushini aks ettiruvchi “Qurilish” marshining yozuvi hisoblanadi. Uni muzeyga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist I. Mollayev sovg'a qilgan. Muzeйда Y. P. Kolesnikov tomonidan yaratilgan J. Neru va Indira Gandi haykaltaroshlik byustlari joylashgan. Ushbu byustlarda M. Ashrafiyning ijodiy aloqalari tasvirlangan.

Muzeyda 16 mingdan ortiq eksponatlar mavjud bo'lib, muzey fondi doimiy ravishda to'ldirilib boriladi. Bular asosan kompozitorning hayoti va ijodiga oid hujjatlar va narsalardir. Ularning ko'pchiligi oila a'zolari, shogirdlari va arxivlarida saqlanadi.

¹ Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. Музеи, галерей, арт-центры Ташкента. Т.: «Fan va texnologiya, 2017, 236 стр+)



Muzey ikki qavatda 6 ta ko'rgazma zalini egallaydi. Oxirgi zal – memorial zal. Birinchi zalda M. Ashrafiy hayotining ilk davrini qamrab oluvchi eksponatlar joylashgan. Muzeydagi har bir eksponat Ashrafiy hayoti va faoliyatining yorqin guvohi hisoblanadi. Bu yerda uning qo'lyozma partituralari, mashhur asarlarini yaratish jarayonidagi yozuvlari, zamondoshlari bilan yozishmalari va mukofotlari mavjud. Ashrafiy asarlarining milliy va xalqaro maydondagi muvaffaqiyati haqida ma'lumotlar ushbu eksponatlar orqali ochib beriladi. Shuningdek, muzeyda uning musiqiy ta'siri ostida yetishgan shogirdlarning ijodiy faoliyati haqida ma'lumotlar ham o'z aksini topgan.

Stendga ko'hna Buxoro manzaralari, muzikali syujetlar bilan tasvirlangan turmush lavhalari aks ettirilgan rasmlar qo'yilgan. Vitrinalarda oilaviy yodgorlik otadan qolgan tambur bilan to'nga, shuningdek muzikachi oilasi yashagan uyining maketi mavjud.²

„Bo'ron" operasi partiturasini parchalari, bosh rollarni ijro etgan solistlar M. Davidov, K. Zokirov va Sh. Rahimovlarning fotosuratlarini, premyera afishalarini stendlarga qo'yilgan. So'ngra ekspozitsiya muzey tomoshabinlarini M. Ashrafiyning Ulug' Vatan urushi yillaridagi ijodi va musiqiy faoliyati bilan tanishtiradi. Kompozitor fashist bosqinchilaridan Vatan ozod etilishi uchun mardona kurashgan Sovet Armiyasiga bag'ishlab "Qahramonlik simfoniyasi" nomli yirik instrumental asarini yaratgan. O'zbek simfoniyasiga asos solgan mazkur birinchi simfonik asar SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. 1944-yilda Ashrafiy "G'oliblar" deb nomlangan ikkinchi simfonik asarini yaratdi.

Uning opera teatridagi musiqiy faoliyati ham davom etdi. U J. Bizening "Karmen", A. Kozlovskiyning "Ulug'bek" va O. Chishkoning "Mahmud Torobiy" operalarini sahnalashtirdi va ularga dirijyorlik qildi. Shuningdek, simfonik musiqiy kontsert dasturlarini namoyish etdi.

Birinchi va ikkinchi simfoniylarning partituralari parchalari, opera spektakllarining dasturlari va boshqa materiallar ko'rgazmaga qo'yilgan.

O'zbekiston SSRning 30 yilligiga bag'ishlab, kompozitor "O'zbekiston" kantatasini, 1951-yilda esa "Baxt qo'shig'i"ni yaratdi. Ushbu qo'shiq ham SSSR Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Keyinchalik S. Vasilenko bilan hamkorlikda "Baxtlar vodiysi" operasini yozdi. Alisher Navoiy nomidagi O'zbek Davlat Opera

² Гласс Ю. И. Тошкент музейлари: (Справочник-йўлқўр- саткич). Т.: Ўзбекистон, 1983-88 б



va Balet teatri yangi binosidagi teatr mavsumi ushbu operaning premyerasi bilan boshlandi.

Ko'rgazmadagi eksponatlar orasida M. Ashrafiyga SSSR Davlat mukofotini berish to'g'risidagi diplom, asarlarning sahifalari va opera postanovkalari bilan bog'liq materiallar ham mavjud.³

Muzey beshta xonadan iborat. Birinchi zalda uning bolalik yillari, uchta esa hayot davrlari bo'yicha asarlari ko'rsatilgan, beshinchi zal Ashrafiyning ijtimoiy-pedagogik faoliyatiga bag'ishlangan.⁴

Muzeyning ikkinchi zalidagi eksponatlar Ashrafiyning 40-50-yillarning ikkinchi yarmidagi faoliyati - simfonik dirijyorlikka ixtisoslashgan Leningrad konservatoriyasidagi eksternal o'qishlari, Boltiqbo'yi davlatlari, Kavkaz bo'yi shaharlarida simfonik dirijyor sifatida gastrol safarlari, Ukraina, O'rta Osiyo respublikalari, uning zamonamizning ko'zga ko'ringan bastakorlari – Dmitriy Shostakovich, Aram bilan ijodiy aloqalari. Xachaturyan va boshqalar.

Uchinchi zalda bastakorning Alisher Navoiyning “Yetti sayyora” she'ri syujeti asosida yaratilgan “Dilorom” (1958), “Shoir qalbi” (1962) kabi ajoyib asarlari haqida hikoya qilinadi. atoqli o'zbek shoiri Furqat, shuningdek, hind musiqa san'atini o'zida mujassam etgan “Timur Malik” she'riy-rapsodiyasi va “Muhabbat tumori” baleti.

To'rtinchi zal Ashrafiyning so'nggi yirik asarlari – “Temur Malik” baleti va “Rustam ertagi” oratoriyasiga, beshinchi zal uning pedagogik va ijtimoiy faoliyatiga bag'ishlangan.

Muzey kolleksiyasining asosini M. Ashrafiyning 1930–1970-yillarni qamrab olgan va tarixchilar, musiqashunoslar, o'zbek musiqa madaniyati bilan qiziquvchi barchani qiziqtirgan shaxsiy arxivi tashkil etadi. Muzeyda qimmatbaho qo'lyozmalar, notalar, partituralar, plakatlar, ijro dasturlari, fotosuratlar, hujjatlar, plastinalar, shaxsiy buyumlar, o'zbek cholg'u asboblari kolleksiyasi (xalq ustasi A. Zokirov yasagan chang, rubob va surnay), shuningdek, Frederik Shopenning noyob musiqa asari mavjud. Muzeyning o'ziga xos eksponati o'zbek musiqasida birinchi simfonik partitura tovushini aks ettiruvchi “Qurilish” marshining yozuvi hisoblanadi. Uni muzeyga O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist I. Mollayev sovg'a qilgan. Muzeyda Y. P. Kolesnikov tomonidan yaratilgan J. Neru va Indira

³ Гласс Ю. И. Тошкент музейлари: (Справочник-йўл кўрсаткич). Т.: Ўзбекистон, 1983-88 б.

⁴https://www.gigal.uz/objects/dir/tashkent/kulytura_iskusstvo_shou_biznes/muzey_muhtara_ashrafi.html?from=muzei.



Gandi haykaltaroshlik byustlari joylashgan. Ushbu byustlarda M. Ashrafiyning ijodiy aloqalari tasvirlangan.

Muzeyda 16 mingdan ortiq eksponatlar mavjud bo'lib, muzey fondi doimiy ravishda to'ldirilib boriladi. Bular asosan kompozitorning hayoti va ijodiga oid hujjatlar va narsalardir. Ularning ko'pchiligi oila a'zolari, shogirdlari va arxivlarida saqlanadi.

Muxtor Ashrafiy o'z asarlarida milliy mumtoz musiqamizdan, xalq musiqasidan, ohanglaridan samarali foydalangan. Bu esa asarlarga xalqchilik, milliy jilolar berishga xizmat qilgan. Jumladan, «Bo'ron» operasida «Do'st yali, yali», «Savti Munojot»; «Ulug' kanal» operasida «Bayot», «Sayyora»; «Sevgi tumori» baletida «Naylaram», «Tanovar» kabi o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini ustalik bilan ishlatgan. Bu haqda musiqashunos I. Piflaks shunday yozadi: «Музыкальный язык М. Ашрафи вызывает множество аналогий с национальным строем узбекской народной музыки, но даже если он цитирует народные образы, никогда не возникает впечатления, что композитор «в плену» у материала. Напротив, он свободно оперирует народными интонациями».⁵

Muzeyda tashkil etilgan ko'rgazmalar va eksponatlar yoshlarni adabiyotga, san'atga va milliy qadriyatlarimizga hurmat bilan qarashga o'rgatadi.

Muxtor Ashrafiyning asarlari, uning hayotiy tajribasi va ijodiy yondashuvi yoshlarni ilm-fan va san'atga intilishga undaydi. Ayniqsa, yoshlar o'z milliy merosini qadrlash, madaniyatni saqlash va uni rivojlantirish yo'lida Ashrafiyning nafaqat badiiy, balki axloqiy qadriyatlariga e'tibor qaratishlari lozim. Muzey, shuningdek, zamonaviy yoshlar uchun ma'naviy o'sish va o'zligini anglashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Muxtor Ashrafiy uy muzeyi milliy musiqa va san'atimizning rivojiga ulkan hissa qo'shgan nodir maskandir. Muzeydagi har bir eksponat milliy san'atning o'ziga xos jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi. U kompozitor hayoti va ijodini o'rganish uchun ilmiy tadqiqotlar markazi vazifasini ham bajaradi. Shuningdek, muzey yosh avlodni milliy musiqa merosini o'rganishga va qadrlashga undaydi. Bu maskan nafaqat ilmiy-tarixiy, balki ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ham ega.

Xulosa qilib aytganda, Muxtor Ashrafiy uy muzeyi, o'zbek musiqasining yetuk vakili Muxtor Ashrafiy hayoti va ijodiga bag'ishlangan muhim madaniy

⁵ Вопросы истории в теории узбекский музыки Т. Издательство «Фан», 1976 93-6- Г.



muassasa hisoblanadi. Muzeyda Ashrafiy ijodining turli davrlariga oid asarlar, qo‘lyozmalar va shaxsiy buyumlar to‘plangan bo‘lib, bu asarlar o‘zbek musiqasining rivojiga qo‘shgan katta hissa sifatida qadrlanadi. Muzey, shuningdek, milliy musiqa merosini asrab-avaylash va uni keng jamoatchilikka tanitishda muhim rol o‘ynaydi.

Bu yerda o‘tkaziladigan tadbirlar va ko‘rgazmalar yosh avlodga o‘zbek musiqasining boy tarixini o‘rganish imkoniyatini yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Исмаилова Ж.Х., Левтеева Л.Г. Музеи, галерей, арт-центры Ташкента. Т.: «Fan va texnologiya», 2017, 236 стр
2. Гласс Ю. И. Ташкент музейлари: (Справочник-йўлқўр- саткич). Т.: Узбекистон, 1983-88 б
3. https://www.gigal.uz/objects/dir/tashkent/kulytura_iskusstvo_shou_biznes/muzey_muhtara_ashrafi.html?from=muzei.
4. Вопросы истории в теории узбекский музыки Т. Издательство «Фан», 1976 93-6- Г.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Muxtor_Ashrafiy_uy-muzeyi.
6. <https://www.tourister.ru/world/asia/uzbekistan/city/tashkent/museum/26483>.



MAHALLIY MUAMMOLARNI HAL ETISH UCHUN QABUL QILINAYOTGAN QAROR VA TASHABBUSLARNING SAMARADORLIGI

Xalq deputatlari Yangiyo'1 tuman kengashi
2-saylov okrugidan saylangan deputati
Aziz Yuldashov Avazovich

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekistonda mahalliy muammolarni hal etish bo'yicha qabul qilinayotgan qaror va tashabbuslarning samaradorligi tahlil qilingan. Mahalliy muammolarni hal qilish uchun amalga oshirilayotgan islohotlar va qarorlarning samaradorligini tahlil qilishda, maqolada Xalq demokratik partiyasining amalga oshirayotgan siyosiy tashabbuslari va ularning mamlakat rivojiga qo'shgan hissasi misol sifatida keltirilgan, ayniqsa, harakatlar strategiyasining ijro etilishidagi maqsadlar va taraqqiyot strategiyasining ta'siri o'rganilgan bo'lib, ularning samaradorligini o'lchashda partiya siyosatining qanday muvaffaqiyatlarga erishayotgani ko'rsatilgan.

Аннотация: В данной научной статье проанализирована эффективность принимаемых решений и инициатив по решению местных проблем в Узбекистане. При анализе эффективности проводимых реформ и решений по решению локальных проблем в статье в качестве примеров приводятся политические инициативы, реализуемые Народно-Демократической партией, и их вклад в развитие страны, в частности, исследуются цели и влияние стратегии развития на реализацию стратегии действий, показывается, каких успехов добивается политика партии при измерении их эффективности.

Abstract: This scientific article analyzes the effectiveness of decisions and initiatives taken to solve local problems in Uzbekistan. When analyzing the effectiveness of ongoing reforms and solutions to local problems, the article provides examples of political initiatives implemented by the People's Democratic Party and



their contribution to the development of the country. In particular, it examines the goals and impact of the development strategy on the implementation of the action strategy, and shows how successful the party's policies are in measuring their effectiveness.

Kalit so'zlar: Samaradorlik, hukumat soati, millatlararo totuvlik, gender tengligi, Harakatlar strategiyasi, Taraqqiyot strategiyasi, Xalq demokratik partiyasi.

Ключевые слова: Эффективность, правительственный час, межэтническая гармония, гендерное равенство, стратегия действий, стратегия развития, Народно-Демократическая партия.

Keywords: Efficiency, government hour, interethnic harmony, gender equality, action strategy, development strategy, People's Democratic Party

O'zbekistonda mahalliy muammolarni hal qilishning umumiy muhimligi bir necha jihatdan ta'sir qiladi, chunki mahalliy darajadagi muammolar ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Aytish mumkinki, O'zbekistonda ayrim hududlarda aholi zichligi yuqori, bandlik darajasi past, va ijtimoiy infrastrukturaga ehtiyoj katta. Mahalliy darajada bu muammolarni hal qilish orqali aholining turmush sharoitini yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta'minlash mumkin. Masalan, viloyatlarda yangi ish o'rinlarini yaratish, maktab va kasalxonalar qurilishi, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash orqali bu muammolarni bartaraf etish mumkin. Shuningdek, mahalliy iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun davlat tomonidan amalga oshirilgan "Mahalliy iqtisodiyotni rivojlantirish dasturlari" yordamida ko'plab viloyatlarda sanoat va qishloq xo'jaligi sohalarida yangi loyihalar amalga oshirilgan

Mavjud muammolarni bartaraf etish uchun, mamlakatimiz tomonidan bir qancha samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, boshqaruvning barcha bo'g'inida samarali qarorlar qabul qilish tizimini tatbiq etilganligi 2017— 2021



yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan ustuvor vazifalarga erishish kafolati hisoblanadi.⁶ Harakatlar strategiyasining besh yillik sarhisobiga nazar tashlaydigan bo'lsak,

davlat va jamiyat qurilishi tizimini takomillashtirish bosqichida davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari tizimi isloh qilinib, ularning faoliyatida samaradorlikni oshirish, davlat tomonidan tartibga solishning zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etish, davlat organlarida sohaga oid bo'lmagan vazifalarni qisqartirish, ular faoliyatiga raqamli texnologiyalarni keng tatbiq qilish ustuvor vazifa sifatida belgilab olindi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar holati bilan yaqindan tanishish maqsadida quyi palata majlislarida hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish – «**hukumat soati**» instituti joriy qilindi.

Shu o'rinda, 2017-yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Virtual va Xalq qabulxonalari tashkil etilganini ta'kidlab o'tish joiz.

Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish bosqichida Oliy sud va Oliy xo'jalik sudi birlashtirilib, Oliy sud faoliyati takomillashtirildi, sudya lavozimida bo'lishning ilk marotaba besh yillik, keyin o'n yillik muddati va muddatsiz davri belgilandi, sud tomonidan jinoyat ishini qo'shimcha tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Fuqarolik ishi bo'yicha sud qarorini nazorat tartibida qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beruvchi muddat 3 yildan 1 yilga qisqartirildi.

Fuqarolik berish tartibining soddalashtirilishi natijasida 2018–2021 yillarda **70 mingdan** ortiq shaxs O'zbekiston Respublikasi fuqaroligiga qabul qilindi.⁷ Sud ishlarini yuritishda nazorat instansiyasi tugatildi. Sud tizimida ortiqcha

⁶ MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA STRATEGIK QARORLARI QABUL QILISHDA AXBOROT TIZIMLARINI QO'LLASH. Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li. May 2021. B-973-977

⁷ Eldor TULYAKOV, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi. Harakatlar strategiyasi bilan besh yil: islohotlar sarhisobi // <https://kknews.uz/oz/97174.html>



sud bosqichlarini bekor qilish orqali «Bir sud – bir instansiya» tamoyili joriy etildi.

Harakatlar strategiyasining **iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish yo‘nalishida** mamlakatdagi iqtisodiy o‘shish 2017 yilda **4,4 foizga**, 2018 yilda **5,4 foizga**, 2019 yilda esa **5,7 foizga** barqaror o‘shishi, amalga oshirilgan islohotlar natijasida bolalarni maktabgacha ta‘lim bilan qamrab olish darajasi **27,7 foizdan 62,4 foizga**, MTTlar soni **5211 tadan 19316 ga** yetkazildi. Yosh ayol-qizlarning ta‘lim olishi uchun qo‘shimcha imkoniyat yaratilib, 3 ming nafardan ortiq qiz uchun alohida grantlar ajratilgani ham ta‘kidlab o‘tish maqsadga muvofiq.

Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida yurtimizning iste‘dodli va fidoyi o‘g‘il-qizlaridan 795 nafari davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Jumladan, 142 nafar yigit «**Mard o‘g‘lon**» davlat mukofoti, 61 nafar yosh esa «**Kelajak bunyodkori**» medali, 592 nafari «**O‘zbekiston belgisi**» ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi. 2021-yildan e‘tiboran yoshlarning «**Biznesga birinchi qadam**» startap g‘oyalari tanlovi doirasida har bir tuman va shaharda kamida uch nafardan g‘olibga bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobarigacha davlat byudjetidan grantlar berish amaliyoti yo‘lga qo‘yildi.

Mamlakatda **millatlararo totuvlikni ta‘minlash yo‘nalishida** O‘zbekistonda millatlararo totuvlik va hamjihatlik sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida millatlararo va dinlararo munosabatlarning yangi modeli yaratilib, 2021-yil yakuniga kelib, do‘stlik jamiyatlari soni **38 ta**, milliy madaniy markazlar soni esa **150** taga yetdi.

Harakatlar strategiyasining sarhisobiga ko‘ra chiqarilgan qonunlar qay darajada samara berganini uning natijalariga ko‘ra bilishimiz mumkin.

Ammo **mamlakatning keyingi bosqichi ayni 2022-2026-yillarni o‘z ichiga jamlagan** Taraqqiyot strategiyasi bo‘lib, "Harakatlar strategiyasidan - Taraqqiyot



strategiyasi sari" degan tamoyil asosida amalga oshirilishi belgilangan va 7 ta ustuvor yo'nalishni o'z ichiga qamrab oladi.

"Beshinchi yo'nalish doirasida asosan ma'naviy va ma'rifiy sohalar rivojlantirilishi nazarda tutilgan. Shu maqsadda "Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat" konsepsiyasi amalga oshiriladi. Madaniyat va san'atni yuksaltirish, yoshlarni sog'lom e'tiqod ruhida tarbiyalash, millatlararo hamjihatlik va o'zaro hurmatni mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratiladi.⁸

Dastlab farmon loyihasi jamoatchilik muhokamasiga qo'yilib, 2022-2026-strategy.uz, jamoatchilik.uz, regulation.gov.uz portallariga jami 17 535 ta takliflar kelib tushdi. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi quyidagi yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Yana bir muhim islohotlardan biri 2026-yilgacha ehtiyojmand aholi ijtimoiy nafaqa va moddiy yordam bilan to'liq qamrab olinishidir. Shuningdek, 2023-yil 1 yanvardan pensiyani hisob-kitob qilishda ish haqining maksimal miqdori pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 10 baravaridan 12 baravarigacha oshirilishi mamlakatimiz tomonidan nafaqat yosh avlodga, balki keksalarga ham g'amxo'rlik qilinayotganini ifoda etadi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida hech qanday soha yo'qki, e'tibor qaratilmagan.⁹

Xususan, shu kunga qadar qabul qilingan qarorlarning samaradorligi haqida gapiradigan bo'lsak, O'zbekistonda so'nggi yillarda bir qator muhim qonunlar qabul qilindi. **"O'zbekiston Respublikasining Bosh Qonuni - Konstitutsiya"ga o'zgartishlar kiritish to'g'risida qonun.** 2023-yil 30-aprelda O'zbekiston Konstitutsiyasiga o'zgartishlar kiritish uchun referendum bo'lib o'tdi. Bu o'zgartishlar asosan inson huquqlarini himoya qilish, mahalliy boshqaruvni

⁸ Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor Advanced Sciences Index Factor. TARAQQIYOT STRATEGIYASI YANGI O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY ISLOHOTLAR ASOSI. Mamatqulov Eldor-Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti. B-957-982

⁹ Umida Haydarova, TDYUU Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi Malika Eraliyeva // [Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari](#)



takomillashtirish, prezidentning vakolatlarini belgilash, ayollarning huquqlarini ta'minlash, demokratiyani rivojlantirish kabi sohalarni o'z ichiga oldi. Konstitutsiyaviy islohotlar natijasida davlat organlarining funksiyalari va javobgarliklari aniq belgilandi.

Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish yanada rivojlantirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. O'zbekistonda 2023-yilda yangi quyosh energiyasi stansiyalari ishga tushirildi. Bu, mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarish hajmini sezilarli darajada oshirdi. **Investitsiya oqimi** ortdi: Chet el va mahalliy investorlardan qayta tiklanuvchi energiya sohasiga qaratilgan investitsiyalar miqdori ortdi. O'zbekistonning energetika tizimi barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. **Atrof-muhitni muhofaza qilish:** Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining rivojlanishi orqali, an'anaviy energiya manbalariga nisbatan karbon chiqindilarining kamayishi ko'zlangan. Shuningdek, Sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, qishloq joylarida tibbiy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida 2023-yilda qonun qabul qilindi. Ushbu qonun shifokorlar malakasini oshirish, tibbiy muassasalarni modernizatsiya qilish va tibbiy xizmatlar jarayonini raqamlashtirishga qaratilgan.

Taraqqiyot strategiyasining mamlakatda yangi ish o'rinlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026-yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2 baravarga qisqartirish 85-maqsadiga ko'ra, alohida ta'kidlash kerakki, Davlat dasturi loyihasidagi aksariyat vazifalar turmush tarzini yanada yaxshilash, ijtimoiy masalalarni samarali hal etish bilan chambarchas bog'liq. Shu nuqtai nazardan Farmon va Davlat dasturi loyihasi **O'zbekiston Xalq demokratik partiyasining** dasturiy maqsadlari bilan har tomonlama hamohangdir. Shuningdek, dastur loyihasida ustuvor yondashuvlar resurs tejankor iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish orqali 2030-yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini



kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard dollarga yetkazish, inflatsiyani 5 foiz, budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, **kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish** maqsadlariga erishishga asos bo'ladi.

10

Yana bir muhim maqsadlardan biri - Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash maqsadiga ko'ra, Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash masalasi kiritilgan. **Xususan**, Xalq deputatlari Xiva shahar Kengashiga O'zbekiston XDPdan saylangan deputat N.Karimboyeva xotin-qizlar masalasiga hamisha ustuvor vazifa sifatida qaraydi. Ular bilan muloqotlar o'tkazib, og'irini yengil qilishga intiladi. Bu galgi uchrashuv "Yangi turmush" mahallasida xotin-qizlar vakillari bilan o'tkazildi. Muloqotda ayollar va bolalarga nisbatan zo'ravonliklarning oldini olish masalasida so'z bordi.

Ochiq va samimiy muloqot tarzda olib borilgan uchrashuvda xotin-qizlarga deputat oilada tinchlikni saqlash, oilalarni mustahkamligini ta'minlash borasida fikr-mulohazalarini bildirdi. Turli xil ziddiyatlar kelib chiqishining oldini olish va go'zal ma'naviy muhitni yaratish uchun avvalo xotin-qizlar to'g'ri tarbiya olishi, ilm va hunar o'rganishi, siyosiy hamda huquqiy bilimlarga ega bo'lishi borasida tushuntirishlar berildi. Ochiq muloqot davomida xotin-qizlar bugungi kunda o'zlarini qiynab kelayotgan masalalar yuzasidan ham murojaat qildi. Har bir masala tegishli tartibda hal etilishi ta'kidlandi.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda turli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, ta'lim,

¹⁰ Anvarjon NURMATOV. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zXDP fraksiyasi a'zosi // <https://xdp.uz/partiya-yangiliklari/10867>



raqamli transformatsiya, ekologiya va boshqaruv sohalarida keng qamrovli qonunlarni qabul qildi. Ushbu qonunlar mahalliy muammolarni hal qilish va davlatni modernizatsiya qilishga yordam beradi.

REFERENCES:

1. Anvarjon NURMATOV. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati, O'zXDP fraksiyasi a'zosi // <https://xdp.uz/partiya-yangiliklari/10867>
2. Umida Haydarova, TDYUU Xotin-qizlar masalalari bo'yicha maslahat kengashi raisi Malika Eraliyeva // [Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari](#)
3. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. Taraqqiyot strategiyasi yangi O'zbekistondagi ma'naviy Islohotlar asosi. Mamatqulov Eldor-Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti. B-957-982
4. Eldor TULYAKOV, «Taraqqiyot strategiyasi» markazi. Harakatlar strategiyasi bilan besh yil: islohotlar sarhisobi // <https://kknews.uz/oz/97174.html>
5. MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYATI ORGANLARIDA STRATEGIK QARORLARI QABUL QILISHDA AXBOROT TIZIMLARINI QO'LLASH. Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li. May 2021. B-973-977



**BOJXONA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA MILLIY
KINOLOGIYA MARKAZI HAMDA XIZMAT ITLARINING
O'RNI**

Xaydaraliyeva Nafosat Xomidjon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs talabasi

E-mail: xaydaraliyeva18@gmail.com

Telefon: 998949051809

Annotatsiya: Xavfsizlikni ta'minlash bilan birga bojxona nazoratini samarali amalga oshirishda xizmat itlari o'zlarining noyob, tabiiy qobiliyatlari bilan ajralib turadi. Xizmat itlarining roli faqat jinoyatlarni aniqlashda ko'zga tashlanmaydi, bojxona postlarida huquqbuzarliklarning oldini olish va milliy xavfsizlikni ta'minlash borasida ham e'tiborga loyiqdir. Respublika Milliy kinologiya markazi esa mazkur yo'nalishda asosiy faoliyat olib boruvchi muassasa hisoblanadi. Ushbu maqolada milliy kinologiya markazi va xizmat itlarining faoliyatiga zamonaviy yondashuvlar orqali ijtimoiy hayotdagi roli bayon etiladi.

Аннотация: Служебные собаки отличаются уникальными природными способностями эффективно осуществлять таможенный контроль, обеспечивая при этом безопасность. Роль служебных собак заметна не только в раскрытии преступлений, но и в предотвращении правонарушений на таможенных постах и обеспечении национальной безопасности. Национальный центр кинологии республики является основным учреждением в этом направлении. В данной статье описаны национальный кинологический центр и современные подходы к деятельности служебных собак и их роли в общественной жизни.



Annotation: Service dogs are distinguished by their unique natural abilities aimed at providing security and effective customs control. Service dogs have a significant role not only in solving crimes, but also in preventing violations at customs posts and ensuring state security. The Republican National Cynological Center is the main institution in this regard. This article talks about the national canine center and modern approaches to service dogs and their role in social life.

Kalit so'zlar: bojxona, milliy kinologiya markazi, xizmat itlari,

Ключевые слова: таможня, национальный кинологический центр, служебные собаки.

Keywords: customs, national canine service, service dogs.

Ma'lumki, jahonning ko'plab nuqtalarida bojxona nazoratini samarali amalga oshirishda xizmat itlaridan muhim vosita sifatida foydalaniladi. Xizmat itlarining tabiiy qobiliyatlari, jumladan hidlarni ajratib olish va berilgan buyruqlarni tez bajara olish salohiyatlari noqonuniy faoliyatlarni tezlik bilan fosh etishda qo'shimcha kuch sifatida ahamiyatga ega. Xizmat itlarini professional darajada o'qitish va tayyorlashda kinologiya markazlari asosiy vazifani bajaradi. Bu borada O'zbekiston bojxona tizimi ham mazkur sohada aniq va innovatsion yondashuvlarga ega bo'lib, bu borada Milliy kinologiya markazi muhim o'rinni egallaydi.

So'nggi yillarda bojxona faoliyatini takomillashtirish, sifatli bojxona nazoratini amalga oshirish, bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlariga chek qo'yish maqsadida sohaga nisbatan keng qamrovli ishlar amalga tatbiq etildi. Jumladan, Milliy kinologiya markazi respublikamizda xizmat itlarini tayyorlash va o'qitish hamda kinologiya sohasida professional kadrlarni tayyorlash bo'yicha xalqaro standartlarga mos yetakchi muassasa sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. Markazda tayyorlanadigan xizmat itlari faqatgina jinoyatlarni aniqlash bilan cheklanib qolmay,



bojxona tizimini rivojlantirishda va xodimlarning faoliyat samaradorligini optimallashtirishda “motivatsiya” vositasi sifatida muhim rol o‘ynaydi.

Bugungi geosiyosiy jarayonlarda mamlakatimizga kirib kelayotgan noqonuniy tovarlarni nazorat qilish, givohvandlik vositalarini, qurol-yarog‘, o‘q-dori va portlovchi moddalarni qidirish, terrorizmga qarshi kurashish, bojxona postlaridan yashirin ravishda valyuta qimmatliklarini, tamaki mahsulotlarini olib o‘tish, noqonuniy tovar aylanmasiga chek qo‘yish hamda fuqarolar osoyishtaligini ta‘minlash, huquqbuzarliklarga chek qo‘yish va jinoyat izlarini ochishda kinologiya markazi Bojxona qo‘mitasining muhim bo‘g‘ini sifatida alohida e‘tiborga molikdir. Chunonchi, 2023-yilning sentyabr oyiga qadar respublikamizning Samarqand viloyatida xizmat itlari yordamida 6 ta qotillik, 81 ta o‘g‘rilik, 1 ta talonchilik, 9 ta givohvandlik moddalari va 2 ta boshqa turdagi jinoyatlar, jami hisobda 99 ta jinoyat fosh etilgan.

Mamlakatimizda kinologiya sohasini yuksaltirish, malakali kinolog kadrlarni yetishtirish maqsadida sohaga oid bir qator normativ-huquqiy hujjatlar, jumladan Konsepsiya va Yo‘l xaritalari ishlab chiqilgan. Misol uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan faoliyat bilan bog‘liq 2021-yil 18-yanvardagi **“O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to‘g‘risida”**gi VMQ-21-son qaroriga muvofiq **“2021-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi Milliy kinologiya markazi faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish”** Konsepsiyasi qabul qilingan. Mazkur Konsepsiyadan Milliy kinologiya markazining amaldagi holati va kamchiliklari, ularni bartaraf etish uchun choralar, ushbu sohaga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, naslchilik va xizmat itlarini o‘rgatishning yangi usullarini joriy qilish, veterinariya xizmatini takomillashtirish kabi maqsad va vazifalar o‘rin olgan. Jumladan,



- **xizmat itlarini tayyorlash** – maxsus dasturlar asosida yuqori samaradorlikka ega itlarni tarbiyalash;
- **veterinariya xizmati** – xizmat itlarini sog'lomligini, xizmatga yaroqliligini ta'minlash;
- **naslchilik ishlari** – xizmat itlarining zotdor turlarini ko'paytirish va ularning salohiyatini oshirish;
- **axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish** “Kinologiya xizmati” avtomatlashtirilgan dastur orqali markazda amalga oshirilayotgan jarayonlarni optimallashtirish;
- **interaktiv xizmatlar** – fuqarolar qulayligi uchun onlayn tarzda xizmatlarni amalga oshirish;
- **xalqaro hamkorlik** – Jahon bojxona tashkiloti ekspertlari bilan birgalikda o'quv-trening seminar mashg'ulotlarini olib borish;
- **ixtisoslashtirilgan dasturlar** – xizmat itlarini o'qitish va tayyorlashda yangi texnologiyalarni joriy etish.

Bilish lozimki, bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona organlari xodimlari xizmat itlaridan foydalanishlari mumkin. Ilg'or xorijiy tajriba natijalari shuni k'rsataiki, politsiyada itlardan foydalanish 1889-yilda londonlik komissar Charlz Uorren tomonidan birinchi marta yo'lgan qo'yilgan, ammo bu ko'zlangan natijaga olib kelmagan. Keyinroq Belgiya, Avstriya-Vengriya va Germaniya davlatlarida itlardan xizmatda foydalanish boshlangan. Vaqtlar o'tib esa xizmat itlariga talab kuchayishi natijasida itlarni tayyorlash pitomnigini ochish zarurati paydo bo'lgan. Bunday pitomniklarda itlarga doimiy ravishda kinologga bo'ysunish, hidlab topish, jinoyatchilarga hujum qilish kabi maxsus vazifalar o'rgatib borilgan.

“Xizmat itlari” atamasi ishlatilganida beixitiyor kishi ko'z o'ngida o'sha mashhur “Komissar Reks” detektiv serialidagi Reks obrazi gavdalanishi tabiiy hol. Insonlardan farqli o'laroq xizmat itlari inson his qila olmaydigan va tasavvuriga



sig'dira olmaydigan o'ziga xos dunyoga egadir. Xizmat itlarini aksariyat hollarda bojxona postlarida, post-patrul qismlarida yoki ommaviy tadbirlar davomida uchratamiz. Xizmat itlarini tayyorlash pitomnigining faoliyatini o'rganishdagi izlanishlardan xulosa qilish

mumkinki, xizmat itlari o'z ixtisosligi bo'yicha:

- maksimal 6 tagacha hidlarni ajatish uchun maxsus itlar;
- hujjatlar yoki narsalarni qidirish uchun mo'ljallangan qidiruv itlari;
- baxtsiz hodisa yuz bergan joylardan odamlarni qidirish, yordamga chaqirish, chiqish qiyin bo'lgan joylardan odamlarni qutqarish uchun qutqaruvchi itlar;
- nogironlarga hamrohlik qiluvchi itlar;
- taqdim etilgan namunadagi yoki hududdagi ma'lum bir hidlar yordamida o'sha hidning mavjudligi yoki mavjud emasligini aniqlash uchun detektor itlar;
- post patrul xizmatining nazorat joylarida yoki tunda qo'riqchi sifatida ishlashi uchun mo'ljallangan patrul itlari;
- tor ixtisoslikka ega bo'lgan soqchi itlar;
- jinoyat sodir qilgan shaxslarni ushlab borishda yordamlashadigan konvoy itlariga bo'linadi.

Yuqoridagi xizmat itlarining deyarli barcha turi ijtimoiy hayotda ko'zga tashlanadi. Xususan, odatda ulardan quyidagi itlarni tanlashadi va tarbiyalashadi:

- giyohvandlik vositalarini aniqlash uchun tayyorlanadigan xizmat itlariga quvnoq, stressga chidamli hamda maxfiy va kichik joylarga chiqa olish imkoniyatiga ega bo'lgan jussasi kichik Spaniyeli (Spaniel) yoki Bigl (Beagle) kabi itlar;
- portlovchi moddalar, minalar, granatalarni qidirib topish chog'ida katta hajmli, bosiq Labrador yoki Nemis ovcharkasi kabi itlar tanlanadi, chunki ularning xotirasi kuchli, itoatkor va aniq harakat qilish qobiliyatiga ega;



- operativ-qidiruv xizmati uchun hid bilish qobiliyati kuchli rivojlangan va aql-zakovati kuchli Belgiya ovcharkasi kabi;
- konvoy va soqchilik xizmati uchun ahmoqroq, begonalarga ishonmaydigan, eshitish va ko‘rish qobiliyati kuchli rivojlangan, jismonan baquvvat va biroz tajovuzkor Kavkaz ovcharkasi kabi itlar tanlanadi.

Xizmat uchun bunday itlarni tanlanishining sababi ixtisoslik bo‘yicha o‘qitilgan itlardan ham har bir topshiriq uchun turli jismoniy va psixologik chidamlilik talab qilinadi. Shu boisdan, har bir xizmat turi uchun eng maqbul bo‘lgan zotlar tanlanib, ularning tabiiy qobiliyatlaridan samarali foydalaniladi.

Milliy kinologiya markazida naslchilik pitomnigida yetishtirilgan va markaz ehtiyojlaridan ortiq bo‘lgan hamda xizmatga yaroqsiz deb topilgan itlarni sotish huquqi mavjud. Yuridik shaxslar malakali mutaxassislar tomonidan tayyorlangan va jinoyatlarni ochishda ishtirok etgan xizmat itlarini sotib olishlari mumkin. O‘zbekiston fuqarolari hamda fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarga xizmat itlari sotilmaydi, bundan xizmatga yaroqsiz itlar mustasno. Komissiya xulosasiga ko‘ra jismoniy kuchsiz, kasallik yoki nuqsonlari bor deb topilgan itlar xizmatga yaroqsiz hisoblanadi.

Agar xizmat itlarida xizmatga yaroqsizlik holatlari aniqlansa, bu haqda ommaviy axborot vositalari orqali itni sotish to‘g‘risida xizmatga yaroqsiz itlarning fotosurati, laqabi, yoshi, jinsi, zoti, narxi, Markazning bank rekvizitlari va qo‘shimcha sifatida telefon raqami hamda murojaat etishning oxirgi muddatlari ko‘rsatilgan holda sotish uchun e‘lon beriladi. Sotib olish yuzasidan belgilangan muddat ichida murojaat kelib tushmasa it sotilmagan deb hisoblanadi va sotuvga qo‘yilgan xizmat itini tayyorlagan kinologlarga bepul asosda beriladi.



Xulosa qiladigan bo‘lsak, Milliy kinologiya markazi va unda yetishtiriladigan xizmat itlarining o‘rni nafaqat bojxona tizimida balki xavfsizlikni ta’minlash borasida ham asosiy ahamiyatga ega.

Markazga nafaqat xalqaro tajribani o‘rganish natijasida zamonaviy texnologiyalarni joriy qilinayotgani uning ijtimoiy ahamiyatini oshirib yetakchi institutga aylantirishga, balki xizmat itlarining salohiyatini yanada yuksaltiradigan strategik usullarni rivojlantirishda va kuchli himoyalangan nazoratni tashkil etishda optimal platforma sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasining Milliy kinologiya markazi faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 21-son qarori

<https://lex.uz/docs/-5225060>

2. “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuni

<https://lex.uz/mact/-67566>

3. Xizmat itlari. O‘zbekiston Respublikasi IIV huzuridagi Tergov departamenti.

<https://tergov.uz/uz/other/sluzhebnye-sobaki1>

4. Umidxon Ma’rufov, muxbir. Kun.uz.news. Politsiyaning xizmat itlari: ular qachondan foydalana boshlangan va hozir qanday tayyorlanadi?

<https://kun.uz/35704600>



MUSTAQILLIK YILLARIDA MA'NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT

Yuldashev Sherzodbek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Bank ishi va audit 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada 1917-1991-yillar va mustaqillik yillarida pedagogika sohasida erishilgan yutuqlar va yuzaga kelgan muammolar borasida soʻz yuritilgan. Xususan, jadidlar, dorilfunun, madrasalarning koʻlami, qizlar maktabi va maorif haqida keng yori tilgan.

Kalit so'zlar: Dorilfunun, madrasa, jadid, qizlar maktabi, maorif.

Аннотация: В этой статье рассматриваются достижения и проблемы, возникшие в области педагогики в период с 1917 по 1991 год и годы независимости. В частности, широко освещались джадиды, дорилфунун, масштабы медресе, школы для девочек и образования.

Ключевые слова: Дорилфунун, медресе, Джадид, школа для девочек, образование.

Abstract: This article examines the achievements and problems that arose in the field of pedagogy in the period from 1917 to 1991 and the years of independence. In particular, jadids, dorilfunun, the scale of madrassas, schools for girls and education were widely covered.

Keywords: Dorilfunun, madrasah, Jadid, girls' school, education.

Ma'lumki ta'lim tizimi rivojlanish davri bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar kishi jamiyati taraqqiyotining turli davrlarida ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan va shunday bo'lib qoldi. 1917-yilgi fevral voqealari va oktabr



to'ntarishidan so'ng Markaziy Osiyo xalqlarining hayotida - ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, jumladan xalq maorifi sohalarida keskin o'zgarish yuz berdi. Ziyolilar va arboblarning faoliyati keng tus oldi, chuqur ijtimoiy-madaniy mazmun kasb etdi. Jadid ziyolilari, ijod ahli bo'lmish Munavvar Qori, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadriddin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Hamza, G'ozi Yunus, Xurshid va boshqalar bilan bir qatorda XX asr bo'sag'asida tug'ilgan iste'dodli yoshlar Mashriq Yunusov, Naim Said, Rafiq Mo'min, Mahmud Xodiev, Baxrom Xaydariy va boshqa qator ziyolilar madaniyat, maorif sohalarida jonbozlik qildilar, ijtimoiy yo'naltirilgan ijod bilan shug'illandilar. Samarqanda mashhur ma'rifatparvarlar

Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Akobir Shomansurzoda, Said Axmad, Saidaxmatxo'ja Siddiqiy, Mardonquli Shomuhammadzoda maktab islohotini amalga oshirish fikri bilan maydonga chiqdilar. Ular 1917-yil aprel oyidan boshlab "Hurriyat" gazetasi sahifalarida yangi usuldagi maktablarning keng tarmoqlarini yaratish zarurligi haqidagi fikrni ilgari surdilar. "Anjumani maorif" jamiyatining mablag'lariga "Rushdiya" maktabi ochildi, unda bepul o'qitilar edi. Abdurauf Fitrat bilan Kamol Shams bu maktabda o'quvchilarga islom diniy ta'limoti, islom tarixi, musulmon huquqi, turk, arab va fors tillarini, arifmetika, geometriya, geografiya, tabiatshunoslik, tarix fanlari o'qitilgan. Yoz faslida Samarqandning o'zida taniqli ma'rifatparvar, shoir va dramaturg Hoji Muin Shukrullo "Tarbiyat" maktabini ochdi. 1918-yilning yozida Samarqanda "Musulmon o'qituvchilari uchun pedagogik kurslar" ochildi va kuzida esa Toshkentda Toshkent uyezdining tub yerli aholisi uchun maktab o'qituvchilari kurslari ochildi. 1918-yil 9-aprelda Munavvar Qori uyida to'plangan jadidlar Turkiston Xalq dorilfununining musulmon bo'limini tashkil etish maqsadida 9 kishidan iborat tashkilot komissiyasini tuzadi. 1918-yil 2-iyun kuni sobiq seminariya binosida dorilfununning o'zbeklar



uchun maxsus o'qituvchilar tayyorlovchi bo'limi - "Dorilmuallimin" ochildi. Munavvar Qori yevropacha usuldagi xalq dorilfununi tashkil etish bilan bir qatorda, mavjud madrasalarni isloh qilish va ularda dunyoviy fanlar o'qitilib, milliy ziyolilar tayyorlash g'oyasini ham ilgari suradi. Bu qarashlarini - u 1923-yil iyunda Toshkentda bo'lib o'tgan xalq maorifi mudirlari qurultoyidagi ma'ruzasida bayon etgan, 1923-yil bu yangi usulda 30dan ortiq madrasa va eski maktablarda talabalar o'qitilgan. Munavvar Qori do'stlari va shogirdlari Qayum Ramazon va Shorasul Zunnun bilan hamkorlikda uch bo'limdan iborat " O'zbekcha til saboqlari" kitobini nashr ettirdi. Xalq ta'limining iste'dodli tashkilotchilari Abduqodir Shakuriy, Ismatulla Raxmatullaev, Isxoqxon Ibrat, O.Dadaxujaev, Abdulla Mustaqov, Xodi Fayziev, Ashurali Zoxiriy,

Sobirjon Raximov, Shokirjon Raimiy, Qori Niyoziy, Sayd Rizo Alizoda, To'xtanazar Shemuhammedov, Rafiq Mo'min va boshqalar katta pedagogik ish olib bordilar.

Maktablar soni o'sdi. 1918-yil boshida 330taga, 1920-yilda Farg'ona, Sirdaryo, Samarqand viloyatlarida 1405taga yetdi. Tashkil bo'lgan maktablar, ayniqsa qishloq joylarida va tumanlarda asosan 1-2 boshlang'ich sinflardan iborat edi. Keyinchalik yuqori sinflar paydo bo'lib bordi. Bunday tartibotdagi qizlar maktablari ham Toshkentda, Andijonda, Qo'qonda va boshqa joylarda birin-ketin ochildi. Ayol muallimlar Solixaxon Muhammadjonova, Muharrama Qodirova, Gulso'm Kopayeva, Fotima Burnasheva, Zebiniso Razzpqova, Zaynab Sadriddinova, Maryam Sharipova va boshqalar ta'lim- tarbiya ishlarini olib borgan.

Milliy, jadid maktablari uchun darsliklar, o'qish kitoblarini ziyolilarimiz yozib chiqarib keldilar. 1917-yilda A.Avloniy "Turkiy guliston yoxud axloq" asarini qayta nashr qildi, shuningdek "Maktab gulistoni" o'qish kitobini, ikki jildlik "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" kitoblarini. Fitrat 1917-yilda "O'quv" kitobini,



1919-yilda Sh. Raximiy va Q.Ramazonbilan birga "Ona tili" darsligini, so'ngra "Imlo masalalari" kitobini yozib chiqardi. Shokirjon Raximiy 1919-yilda birinchi alifbo - "Sovg'a", 1922-yilda "O'zbek alifbosi" darsliklarini chop etdi. Xo'jalikning parokandaligi, sun'iy to'siqlar oqibatida XX asrning 20-yillarida boshida maktablar soni qisqardi, darsliklar yozish, nashr qilish to'xtadi. 1922-yila kelib Turkistonda bolalarning 25 foizi maktablarga jalb qilingan edi. Buxoro Respublikasida 1921- yilda 175 ta yangi maktab, 11 ming o'quvchi bo'lgan. Lekin 1924-yil o'rtalariga kelib maktablar 69 tani, o'quvchilar soni 3563 tani tashkil qildi.

Mavjud institutlar va texnikumlarning bazalarida yangi o'quv yurtlari, jumladan, paxtachilik-irrigatsiya, politexnika, qishloq xo'jaligi, kon qidirish, zooveterinariya, avtomobil yo'llari, to'qimachilik transport, tibbiyot institutlariva boshqa institutlar ochildi. Pedagogik akademiya bazasida 1933-yili Samarqandda O'zbekiston davlat universiteti (hozirgi SamDU) ochildi. 20-30 yillarda xotin-qizlarning savodini chiqarishga katta e'tibor berildi, ayollarning savodsizligini tugatish bo'yicha maxsus kurslar tashkil qilindi. 1926-yilda respublikadagi 82 ta savodsizlikni bitirish maktablarida 2700 xotin-qiz o'qigan bo'lsa, 1936-yilda 186ming ayol savodini chiqargan. Dastlab ayollar orasida savodsizlikni bitirish kurslari o'qituvchilari, bog'cha, maktab o'qituvchilari tayyorlandi. 1929-yilda o'ndan ortiq xotin-qizlar pedagogika va meditsina texnikumlari mavjud edi. 1943-yilda respublikada 41 oliy o'quv yurti va 52 o'rta maxsus bilim yurtlari faoliyat ko'rsatdi.

Pedagogik kadrlar tayyorlashda alohida e'tibor berildi chunki urush davri sharoitlarida ularga ehtiyoj ayniqsa sezilarli edi.

O'zbekiston SSR Oliy Sovetining 1957-yil 1-oktabrdagi sessiyasida "O'zbekiston SSRda majburiy yetti yillik ta'limni to'liq amalga oshirish to'g'risida"gi qonunning qabul qilinishi maktablarda ta'lim tizimi takomillashtirishga qaratilgan



dastlabki qadam bo'ldi. Yangi Qonunga ko'ra umumta'lim maktabi hamma uchun majburiy bo'lgan kamchiliklar barham topmadi. Aksincha, maktab xaqiqiy hayotdan ajralib qolgandi, o'quvchilarga berilayotgan bilimlar fan-texnika taraqqiyoti darajasiga to'g'ri kelmagan. Shuning uchun ham 1959-yil martda O'zbekiston Oliy Soveti " Maktab xalq ta'limi tizimini yanada rivojlantirish to'g'risida" yangi qonun qabul qildi. Ammo, sovet mustabid tuzumiga xos bo'lgan boshlangan ishni oxiriga yetkazmaslik odati bu gal ham muammoni hal qilish yo'lida to'g'anoq bo'lib xizmat qildi, oqibatda xalq ta'limida ahvol o'zgarmadi. O'zbekistonda maktabning turmush bilan bog'lanishi mustahkamlash to'g'risidagi 1959-yilda respublika hukumati qabul qilingan qonunga asosan o'qishni ishlab chiqarish bilan qo'shib olib borish talab etildi. Ushbu munosabat bilan o'n yillik o'rta maktablar qayta tashkil etilib, o'n bir yillik o'rta maktablarga aylantirildi. Respublika maktablari o'qtuvchi kadrlar bilan son jihatidan yetarlicha ta'minlandi. Biroq oliy ma'lumotli pedagog kadrlar 60-yillarda respublikadagi barcha o'qituvchilarning uchdan bir qismini tashkil qilgan. 1960-1970-yillarda sanoat, qurilish, transport va aloqa sohalari bo'yicha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlaridagi talabalar soni 20 mingdan 63 mingga, ya'ni 3 baravardan ziyod ko'paydi. Oliy maktablarda 1958-yili 5 ming ilmiy pedagog xodim ishlagan bo'lsa, 1965-yilda bu son 8 mingtaga yetdi. 1971-1975-yillarda oliy o'quv yurtlarini tugallagan diplomli 182 ming nafar mutaxassis kadrlar respublika xalq xo'jaligiga yetkazib berilgan.

XX asrning 70-yillarga kelib respublikamizda ijtimoiy sohada ro'y bergan kamchilik va muammolar ta'limga ham o'z ta'sirini o'tkazdi. Shunday bo'lsada, bu borada katta qadam tashlandi. O'zbekiston yalpi savodxonlar respublikasiga aylandi.

Umumta'lim maktablar soni 1985-yilga kelib 7000dan ortiqni tashkil qildi. Ammo, o'quvchilarning 60foizi nobop binolarda joylashgan, 700 tasi avariya



holatida bo'lgan. Ayniqsa, qishloq maktablarida ahvol og'ir bo'lgan. 75 foiziga yaqini vodoprovod va kanalizatsiyaga, yarmidan ko'prog'i markaziy isitish moslamalariga, oshxona va sport zallariga ega emas edi. Joy tanqisligi sababli 5800 ta maktabda o'qish ikki smenada olib borilar edi.

1985-1990-yillarda O'zbekistonda 3693 ming o'quvchiga mo'ljallangan yangi o'quy yurtlari talab qilingan holda, Markazning topshirig'i bilan bu raqam 920 ming o'ringa tushirildi. Shu yillarda respublikadagi 14 ta pedagogika instituti a 38 ta o'rta maxsus bilim yurtlarida yiliga o'rtacha 17 mingdan yosh o'qituvchilar tayyorlangan holda, maktabda faoliyat ko'rsatuvchilar soning muttasil kamayishi ta'lim tizimi va hukmron mafkuradagi jiddiy cheklanganlik oqibatida yuz berdi.

1970-yilda oliy maktablarni bitirganlar soni 334 mingni tashkil etgan bo'lsa, bu raqam 1990-yilga kelib 508mingga yetdi.

Avvalo shuni ta'kidlash zarurki, bundan 15 yil oldin qabul qilingan, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi deb nom olgan Ta'lim sohasini isloh qilish dasturi mamalakatimizda yangi jamiyat qurishning bosqichma-bosqich va tadrijiy rivojlanish prinsipiga asoslangan iqtisodiy va siyosiy islohotlarning biz tanlagan "o'zbek modeli"- o'z taraqqiyot yo'limizning ajralmas tarkibiy qismidir. Mustaqillik yillarida ta'lim muassasalarida zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari bilan to'ldirildi. O'zbekistonda maktab ta'limi 7 ta tilda: o'zbek, qoraqalpoq, rus, qozoq, qirg'iz, turkman va tojik tillarida olib borilmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pedagogik fikrlar mazmuni bilan tanishish, ularda ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha rivojlanganligiga guvoh bo'lish mumkin:

1. Pedagogika fani metodologik g'oyalarining takomillashuvi.



2. Pedagogik bilimlar ijtimoiy-g'oyaviy asoslarining boyishi.
3. Shaxsni ijtimoiylashtirish.
4. Yangicha ta'limiy qarashlarning paydo bo'lishi
5. Tarbiya jarayonida ijtimoiy jamoatchilik ta'sirining kuchayishi.
6. Pedagog kadrlarni kasbiy jihatdan tayyorlashning yangi tizimiga asos solinishi
7. Ta'lim sohasida xalqaro hamkorlikning yo'lga qo'yilishi
8. Maxsus pedagogika ilmiy asoslarining boyitilishi.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi fikrlar asosida aytish joizki, Sharq va G'arb mutafakkirlari "Har bir inson ilm olib uning mazmun va mohiyatidan voqif bo'lishi kerak, ilm olib aqliy kamol topish kishining yoshligidan to umrining oxiriga davom etmog'i lozim" g'oyasini ilgari surishdir. Bugungi qadam ertangi hayotni hal qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. С.А. Ҳайдаров. (2020). Ўзбекистон тарихини ўқитишда “Зафарнома”дан фойдаланишни имкониятлари. *Science and Education*. 1(7). 192-198
2. Сулаймон Амиркулович Ҳайдаров. (2020). Тарих дарсларида интеграциялашган технологиялардан фойдаланиш. *Science and Education*. 1(8). 666-671
3. Ҳайдаров С. (2020). Ўзбекистон тарихи дарсларида педагогик технологияларни уйғунлашган ҳолда қўллашнинг методик талаблари. *Academic Research in Educational Sciences*. 1 (3). 1313-1321.



4. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович. (2020). Тарих фанини ўқитишга оид экологик муаммолар масаласи «Scientific Progress» Scientific journal 1(1). 12-17.
5. С.А. Ҳайдаров. (2020). [Тарих дарсларида тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш](#). Science and Education. 1(9). 458-461.
6. Ҳайдаров Сулаймон Амиркулович. (2021). Ўзбекистон тарихи фанини ўқитишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланишнинг ўзига хослиги «Scientific Progress» Scientific journal 1(3). 9-14.
7. Khaydarov S.A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. Conference Proceedings. Page 41-43.



YURIDIK FAOLIYATDA QUANTUM MACHINE LEARNING USULLARINING QO‘LLANILISHI

Olimova Hulkar

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 1-kurs A-potok 3-guruh talabasi

olimovahulkar85@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada quantum machine learning metodlarining huquqiy sohada qo‘llanilishi, uning foydalari va qo‘llash bilan bog‘liq muammolar haqida so‘z yuritiladi. Kvant hisoblash va mashinani o‘rganish texnologiyalari rivoji va ularning kombinatsiyasi bo‘lgan quantum machine learning haqida umumiy tushunchalar beriladi. Bundan tashqari, maqola kvant bilan takomillashtirilgan mashinani o‘rganish algoritmlaridagi yutuqlar yuridik faoliyatda qo‘llanilishini hamda axloqiy va xavfsizlik bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarni ko‘rib chiqishda o‘ziga xos yechimlar zarurligini ham ta’kidlab o‘tadi.

Kalit so‘zlar: quantum machine learning, sun‘iy intellect, kvant fizikasi, klassik kompyuterlar, kvant kompyuterlar, quantum natural language processing, quantum support vector machine.

Аннотация. В этой статье рассматривается применение методов квантового машинного обучения в юридической сфере, его преимущества и проблемы, связанные с применением. Дается общее представление о развитии технологий квантовых вычислений и машинного обучения, а также о квантовом машинном обучении, которое представляет собой их комбинацию. Кроме того, в статье также подчеркивается, что достижения в алгоритмах машинного обучения с квантовым улучшением используются в юридической деятельности, а также что конкретные решения необходимы при рассмотрении этических проблем и проблем, связанных с безопасностью.

Ключевые слова: квантовое машинное обучение, искусственный интеллект, квантовая физика, классические компьютеры, квантовые компьютеры, квантовая обработка естественного языка, квантовая



векторная машина поддержки.

Annotation. This article discusses the application of quantum machine learning methods in the legal field, its advantages and the problems associated with the application. It provides an overview of the development of quantum computing and machine learning technologies, as well as quantum machine learning, which is a combination of them. In addition, the article also highlights that advances in quantum-enhanced machine learning algorithms are being used in legal practice, and that specific solutions are needed when addressing ethical and security-related issues.

Keywords: quantum machine learning, artificial intelligence, quantum physics, classical computers, quantum computers, quantum natural language processing, quantum vector machine support.

Texnologiyalar asri deb olgan va rivojlanayotgan XXI asr bo‘ylab ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi sababli turli sohalarda o‘shir kuzatilmogda. Bu, albatta, huquqiy faoliyat sohasidagi innovatsiyalarga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmadi. Ma‘lumki, hozirgi kunda qonunlar, qonunosti hujjalar va boshqa normativ huquqiy hujjatlarning soni bir necha yuz mingtadan oshib ketdi. Shu sababli, yuristlarning amaliy faoliyati davomida kompyuter tizimlari kundan kunga asosiy o‘rinni egallab bormogda. Son-sanoqsiz katta hajmdagi qonun hujjatlarini, ma‘lumotlarni izlash, o‘rganish, tahlil qilish va ulardan foydalanish ancha qiyin va ko‘p vaqt talab qiladigan masala hisoblanadi. Aynan quantum machine learning usullarining qo‘llanilishi yuridik sohada yuqoridagi kabi ma‘lumotlarni qayta ishlash va tahlil etishda inqilob darajasidagi o‘zgarishlarni keltirib chiqarishi mumkin. U yirik hajmga ega bo‘lgan ma‘lumotlarni yuqori aniqlikda va tezlikda hisoblash imkonini beradi. Mashina o‘rganish (ML) sun‘iy intellektning (AI) bo‘limidir. Ma‘lumotlardan o‘rganish mumkin bo‘lgan tizimlarni yaratishga qaratilgan. Kvant hisoblash (QC) kvant mexanikasi qoidalaridan foydalanadi, bu esa unga axborotni mutlaqo yangi usullarda qayta ishlash imkonini beradi.

Ushbu maqolaning maqsadi quantum machine learning texnologiyasining turli sohalarda, xususan, yuridik faoliyatda ta‘sirini tahlil etishdan iborat. Shu



maqsadlar orqali Quantum machine learning algoritmlarining foydalanish mumkin bo'lgan imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash, shuningdek uning kelajakdagi istiqbollari uchun zarur bo'lgan yo'nalishlarni ko'zda tutadi. Maqolaning dolzarbligi shundaki, raqamlashtirish jarayonlaridan hozirgi kunda deyarli barcha sohalarda foydalanilmoqda. Bu esa, albatta, yuridik sohada ham ma'lum bir afzalliklar va noaniqliklarni keltirib chiqaradi. Shunga qaramasdan, quantum machine learning hali rivojlanayotgan soha bo'lgaligi tufayli bir qator muammolari ham yo'q emas.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilab olindi:

- Quantum machine learning haqida asosiy tushunchalar;
- Quantum machine learningning yuridik faoliyatga ta'siri;
- Klassik va quantum quantum machine learning o'rtasidagi farqlar;
- Quantum machine learning algoritmlarining huquqiy sohalarda qo'llanilishi;
- Quantum machine learning ning yuridik sohadagi maxfiylik va xavfsizlik masalalari;
- Yuridik faoliyatda quantum machine learning ning mustaqil rivojlanishi va uning uchun takliflar.

Ularni o'rganish va joriy etish yo'llari haqida chuqur ilmiy tadqiqot o'tkazilishi talab etiladi.

USULLAR

Ushbu tadqiqotda kvant hisoblash ilovalarini o'rganuvchi yirik loyihalarning bir qismi, uning machine o'rganishdagi roli bo'yicha mavjud bo'lgan usullarni ko'rib chiqadi.

- **Turli hajmdagi maqolalar va adabiyotlar tahlili:** Maqolalarni to'plash uchun "Quantum Computing Application" ilovasidan foydalangan holda keng qamrovli qidiruv olib borilib, mavzuga xos bo'lgan nazariy ma'lumotlar o'rganildi va so'nggi ikki (2022-2024) yillar ichida 400 ta yangi chop etilgan nashrlar borligi aniqlandi. Ushbu tahlil ma'lumotlaridan 287 ta maqola kvant hisoblash mashinalariga tegishli ekanligi aniqlandi. Yuqoridagi ma'lumotlarni



tadqiq etishda “kvant fizikasi”, “machine learning” hamda “quantum computing” kabi so’zlardan foydalanib qidiruv amalga oshirildi.

- **Hodisani o‘rganish (Case study):** Tadqiqot davomida O‘zbekiston Respublikasi hududidagi Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining faoliyati hamda tajribasi o‘rganildi. Ushbu tadqiqot instituti sun‘iy intellekt va raqamli texnologiyalar, xususan, quantum machine learning sohasida ham tadqiqot olib borayotganligi aniqlandi. Shu bo‘yicha 2021- yil 31-iyulda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilingan “Raqamli texnologiyalar va sun‘iy intellektni rivojlantirish ilmiy- tadqiqot institutini faoliyati tashkil etish to‘g‘risida” gi qarori o‘rganib chiqildi². Bundan tashqari, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti hamda institutning “Intellektual dasturiy tizimlar” qo‘shma laboratoriyasi faoliyati yo‘lga qo‘yilganligi, uning olib borayotgan ilmiy-tadqiqotlari atroflicha muhokama etildi.
- **Qiyosiy tahlil:** Yuridik faoliyatda quantum machine learning usuli qo‘llanilishining klassik va kvant kompyuterlari o‘rtasidagi farqlari va ko‘rsatkichlari taqqoslandi. Hozirgi kunda va yaqin kelajakda yuridik sohada quantum machine learning algoritmlari va ularning ishlash prinsplari yuridik xizmatlar sifati hamda samaradorligini oshirishga qanchalik darajada ta’sir qila olish holatlari tahlil etildi.
- Yuqoridagi metodlarni qisqacha sarhisob qilaylik. Mashinani o‘rganish usulini prognozlash uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan model funksiyasini va ma’lumotlardan umumlashtiruvchi muayyan modelni yaratish uchun ma’lumotlardan qanday foydalanishni o‘rgatish strategiyasini belgilaydi. Nazorat ostidagi ta’limda o‘quv maqsadi maqsadli natijalar va o‘quv majmuasi uchun bashorat qilingan natijalar o‘rtasidagi xatolikni minimallashtirishdir. Biroq, bu maqsad odatda sinov yoki tasdiqlash to‘plamida o‘lchanadigan umumiy xatoni minimallashtirishning umumiy maqsadiga xizmat qiladi.
- Shubhasiz, turli strategiyalar turli darajadagi aniqlikdagi natijalarni berishi mumkin. Klassik mashinalarni organish algoritmlarini takomillashtirish uchun kvant axborot texnikasidan foydalanish tadqiqotning juda istiqbolli yo‘nalishiga aylandi. Shu bilan bir qatorda, huquqiy va axloqiy normalarning talablariga qat’iy rioya qilish ham muhim hisoblanadi.



NATIJARLAR

Tadqiqotlar natijasida quantum machine learning usulini yuridik sohada qo'llanilishining foydalari va qiyinchiliklari bo'yicha quyidagi asosiy ma'lumotlar olindi. Jumladan:

1) Kvant kompyuterlar manbaalarining cheklanganligi: hozirgi kunda mavjud bo'lgan kvant kompyuterlari kichik miqdordagi kubitlardan iborat bo'lib, ularning kvant xotira hajmi va aniqligi cheklangan. Natijada, ko'p murakkab QML algoritmlari katta kubitlar sonini talab qilganligi bois kvant kompyuterlari amaliy masalalarni hal qilish uchun yetarli darajada qudratli emas.

2) Kvant kompyuterlarining sezuvchanlik darajasi kuchliligi va shovqinga chidamsizligi: kvant kompyuterlari juda sezgir va umga tashqi sharoitlardagi o'zgarishlar tez ta'sir qiladi. Hisoblash jarayonlarida shovqinlar xatolarga sabab bo'lishi va natijaning aniqliligini pasaytirishi mumkin. Ushbu holat quantum machine learning algoritmlarining ishlashini murakkab qiladi va qaytadan xatolarni tuzatishni talab etadi.

3) Quantum machine learning kutubxonalarining va algortimlarining yetishmasligi: quantum machine learning algoritmlari cheklangan va mavjud algoritmlar ma'lum bir muammoni hal etishga qaratilganligi olimlarning hozirda yangi algoritmlar yaratishiga to'g'ri kelyapti. Har bir quantum machine learning dasturiy ta'limoti uchun uzoq vaqt va resurslar talab etiladi.

4) An'anaviy (klassik) ma'lumotlarni kvant formatiga o'tkazish va kodlashdagi qiyinchiliklar: bu jarayon ham ko'pincha ko'p vaqt va kuch talab qiladi. Ma'lumotlarni kodlash jarayonida tezlik va aniqlik pasayishi mumkin, bu esa quantum machine learning algoritmlarining samaradorligini kamaytiradi. Ma'lumotlarni kubitlarga joylash uchun zarur bo'lgan kodlash usullarining yo'qligi ma'lumotlarni qayta ishlash jarayonlarini kechiktiradi.

5) Kvant kompyuterlari va ularning tajriba uskunalarining narx jihatdan qiymati: ularning oliy narxi keng ommaga tarqalishiga to'sqinlik qiladi. Faqat yirik kompaniyalar va ilmiy tadqiqot markazlarigina Quantum machine learning tadqiqotlari bilan shug'ullanish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Masalan, Google kompaniyasi kvant kompyuterlariga ega bo'lsada, bu kichik kompaniyalar va universitetlar uchun qimmatga tushadi.

6) Quantum machine learning algoritmlarining matematik jihatdan



murakkabligi va shifrlash bilan bog'liq muammolarning mavjudligi: quantum machine learningdan foydalanishda ma'lumotlarning xavfsizligi masalasi ham muhim hisoblanadi. Kvant hisoblashning mavjud shifrlash protokollarini buzish ehtimoli mavjudligi sababli, shifrlash sohasida QMLning qo'llanilishi yangi xavfsizlik choralarini ko'rilishini talab qiladi.

Bu bo'shliqlarni to'ldirish uchun ilmiy tadqiqotlar, texnologik rivojlanish va yangi kvant kompyuter uskunalari ishlab chiqish lozim.

Qiyosiy tahlil natijalariga ko'ra, quantum machine learning sun'iy intellektni ham rivojlantirishi mumkin. Quantum Machine Learning klassik va kvant kompyuterlarning ishlash prinsiplarini birlashtiradi, bu esa ulardan har birining imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga yordam beradi. Klassik kompyuterlarning an'anaviy bitlardan foydalanishi ma'lumotlarni 0 va 1 holatida saqlash imkonini beradi. Kvant kompyuterlar kubitlardan foydalanadi va ularning hisoblash imkoniyatlari klassik kompyuterlarga nisbatan ancha yuqori hisoblanadi. QMLda klassik va kvant kompyuterlarni birgalikda ishlatish orqali gibridd yondashuvlar paydo bo'ladi. Klassik kompyuterlar ma'lumotlarni tayyorlaydi, kvant kompyuterlar esa murakkab hisob-kitoblarni bajaradi. Masalan, yuridik sohada kvant kompyuterlari yordamida murakkab algoritmlar ishlatilib, ma'lum bir huquqiy holatga mos bo'lgan ehtimolliklar asosida prognoz qilish amalga oshirilishi mumkin. Kvant algoritmlari murakkab muammolarni, turli xil sharoitlarda sud qarorlarining ehtimolini hisoblash yoki eng yaxshi huquqiy strategiyani tanlash imkoniyatini beradi.

1. Hujjatlarni tasniflash: bunda quantum support vector machine algoritmidan (QSVM) foydalaniladi. Ushbu algoritm shartnomalar, sud qarorlari va boshqa shu kabi yuridik hujjatlarning mazmunini o'rganadi hamda ularni turli toifalarga tasniflaydi

2. Hujjatlarni qayta ishlash: quantum clustering algoritmidan foydalaniladi. Uning afzalliklari yirik hujjat to'plamlari o'rtasidagi o'xshashliklarni aniqlab, ularni guruhlash orqali qidiruv va tahlil jarayonlarini tezlashtiradi.

3. Sud ishlarini bashorat qilish: bunda quantum neural networks algoritmi ishlaydi. Sud ishlarining natijalarini bashorat qilish, qaysi sud ishi qanday natijaga olib kelishi mumkinligini aniqlaydi, ya'ni prognoz qiladi. Quantum neural networks tarixiy sud ma'lumotlarini o'rganib, kelajakdagi ishlarning natijalarini



aniqlashda yordam beradi.

4.Yuridik ma'lumotlarni qidirish: Quantum k-nearest neighbors (QkNN) algoritmi Yuridik ma'lumotlar bazasidan ma'lumotlarni tezlikda qidirish va o'xshash bo'lgan hujjatlarni topishda qo'llaniladi. O'xshash hujjatlarni aniqlaydi va foydalanuvchiga eng maqbul variantni taqdim etadi.

5. Hujjatlarni avtomatik yozish: bunda Quantum generative models algortmidan foydalaniladi. Shartnomalar, arizalar yoki sud hujjatlari kabi yuridik matnlarni yaratish va ularni standartlarga moslashtirishda qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, klassik kompyuterlar ma'lumotlarni saqlash va uzatishda bitlardan, ya'ni nol va birlardan foydalanadi. Ko'p holatlarda ma'lumotlar to'plami milliardlab qiymatlardan iborat bo'lishi mumkin, ammo javob esa faqat bitta bit (1 yoki 0 bu bir vaqtda faqat bitta hisoblash degani). Kvant kompyuterlari esa an'anaviy bitlardan farqli ravishda kubitlardan foydalanadi. Kubit kvant holatiga asoslanadi va bir vaqtning o'zida ham 1, ham 0 holatlarida bo'la oladi. Bu holat superpozitsiya holati deb ataladi. Ular ko'proq ma'lumotlarni bir vaqtning o'zida hisoblash imkoniyatiga ega bo'lib, ish samaradroligini oshirishda va vaqtni tejashda ancha qo'l keladi.

Asosiy yutuqlarini navbatdagi jadvalda ko'rish mumkin:

Rivojlanish	Mualliflar	Ta'sir	Qiyinchiliklar
Kvant yadro logistic regressiyalari (QKLR)	Ning va boshqalar(2023)	Shaklni aniqlash va ma'lumotlarni tasniflashni yaxshilaydi	Chiziqli muammolar bilancheklangan
Kvant qo'llab-quvvatlash vector mashinalari (QSVMS)	Rana va boshqalar (2022). Zhang va boshqalar (2023)	Murakkab ma'lumotlarni qaytaishlash samaradorligini yaxshilaydi	Keng qamrovli qidiruv ko'proq talab etiladi
Gibrid kvant-klassik chuqur o'rganish modellari	Suryotrising, Musashi (2022)	kiberxavfsizlikda aniqlik ilovalari	sharoitlarga sezgirlik va optimallashtirish talab etiladi.

Ushbu asoslarga tayanib, Rana va boshqalar tomonidan o'rganilgan Kvantni



qo'llab quvvatlash vector mashinalari (QSVMs) murakkab, yuqori o'lchamli ma'lumotlarni yanada samarali qayta ishlash uchun kvant hisoblashdan foydalanganligini aytishimiz mumkin. Biroq o'z navbatida, uning bir qator kamchiliklari ham mavjud. Masalan, quantum machine learning yuridik sohada samaradorlikni oshirish imkonini bersada, kvant kompyuterlari resurslarining cheklanganligi, hisoblash jarayonlarida sezuvchanlik va shovqin kabi muammolar, algortimlarning matematik murakkabligi va yuqori narxlarning mavjudligi uni amaliy qo'llashda to'siq bo'lishi mumkin.

Quyidagi jadvalda uning kamchiliklarini ko'rish mumkin:

Qiyinchiliklar	Tavsif	QML uchun ta'siri
Cheklanganlik	Hozirgi vaqtda kvant hisoblash texnikasi cheklangan kubitlarni taklif qila oladi va ular xatolarga moyildir	Quantum machine learning ilovalari uchun murakkablikni cheklaydi.
Ma'lumotlarning maxfiyligi bilan bo'g'liq muammolar	Kvant hisoblashning mavjud shifrlash amaliyotining buzish qobiliyatiga ega ekanligi ma'lumotlar xavfsizligibilan bog'liq muammolarni keltirib chiqaradi.	Yangi va kvantga chidamli shifrlash usullarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Bizning natijalar qismida yozganlarimiz yuqoridagi jadval muallifi hisoblangan Tuomo Sipolaning tadqiqot natijalari orqali tasdiqlanadi. Bizning tadqiqot natijalarimiz ham quantum machine learning texnologiyasi hali sohalarga to'liq tatbiq etilmaganligi sababli hozirgi zamonaviy sharoitlardagi cheklovlarni ko'rsatib o'tgan. 1-jadvalda batafsil tavsiflanganidek, Ning va boshqalar tomonidan Kvant yadro logistik regressiyasi (QKLR) kabi yutuqlar murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashda an'anaviy logistik regressiya cheklovlarini yengib o'tishni maqsad qilib qo'ygan ma'lumotlar tasnifini yaxshilashni va'da qilmoqda. Xuddi shunday,

Kvantni qo'llab-quvvatlash vektorli mashinalari (QSVMs) murakkab ma'lumotlarni qayta ishlashda samaradorlikning oshirilishini ko'rishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot yuridik faoliyat davomida quantum machine learning algortimlaridan foydalanish mumkinligini, uning afzalliklari va bir qator mavjud



bo'lgan muammolarini ko'rib chiqdi. Uning amaliy faoliyatda qo'llanilishi huquq tizimida huquqiy hujjatlarni avtomatlashtirish, hujjatlarni tez tahlil qilish, risklarni oldindan ko'ra olish, shuningdek sud ishlarini prognoz qilish davomida katta yordam berishi mumkinligi aniqlandi. Maqola miqdoriy ko'rinishni taqdim etsada, u nazariy va amaliyot o'rtasidagi tafovutni bartaraf etish uchun chuqurroq o'rganish zarurligini ta'kidlab, quantum machine learning usulining to'liq salohiyatini ochish va mashinani o'rganish kelajagida inqilob qilish uchun yo'l ochadi.

Xulosa qilib aytganda, QML yuridik sohada rivojlanish va innovatsiya uchun katta istiqbollarga ega bo'lsada, uning muvaffaqiyati texnologik va ilmiy yutuqlarga bog'liq. Shu orqali yuridik xizmatlar tezligi va sifatini oshirish kelajakda bu texnologiyadan foydalanishga yo'l ochadi.

Kelajakda O'zbekiston Respublikasida ham yuridik sohaning boshqa tarmoqlarida ham quantum machine learning algortimlarini qo'llash yurtimizning taraqqiy etgan mamlakatlar qatoriga kirishga va yuridik xizmatlar bozorining sifatini oshirishga turtki bo'ladi.

TAVSIYA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot o'rganilgan kamchiliklarga quyidagicha yechimlar beradi:

Tr	Muammo	Taklif
1.	Kvant kompyuterlari resurslarining cheklanganligi	Davlat xalqaro maydonda boshqa davlatlar bilan hamkorlik loyihalarini amalga oshirishi
2.	Algortim va kutubxonalarining cheklanganligi	Akademik sohada QML texnologiyasiga oid tadqiqotlarni rag'batlantirish va uni rivojlantirish maqsadida grandlarni jalb etish
3.	Maxfiylik va xavfsizlik masalalari	Yuridik ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash uchun kuchli xavfsizlik tizimidan, ya'ni kvant kriptotarifaysidan foydalanish va uni doimiy ravishda yangilab borish



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. <https://st.deepthought.industries/UFnyA3>
2. Giuntini, R., Granda Arango, A.C., Freytes, H., Holik, F.H., & Sergioli, G. (2023b). Multi-class classification based on quantum state discrimination. *FuzzySets and Systems*, 467, pp.
3. <https://www.lex.uz/uz/docs/-5544451>
4. <https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.en>
5. [https://scholar.google.com/scholar_lookup?title=Machine%20Learnin
g% 20with %20 Quantum %20 Computers&publication year
2021&author=M.%20 Schuld&author=F. %20Petruccione](https://scholar.google.com/scholar_lookup?title=Machine%20Learning%20with%20Quantum%20Computers&publication_year=2021&author=M.%20Schuld&author=F.%20Petruccione)



INSON HUQUQLARINI HIMOYALASH MEXANIZMI

Olimova Hulkar

Hulkarolimova85@gmail.com

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil
sudlov fakulteti 1-kurs A potok 3-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqola inson huquqlari tushunchasi, uni samarali himoya qilish mexanizmining mazmunini nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Inson huquqlarining xalqaro qonun hujjatlaridagi va shu bilan bir qatorda milliy qonunchilik tizimidagi o'rni hamda uning himoyasini ta'minlashda davlat organlari, nodavlat tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlarining o'zaro hamkorligi tahlil etiladi. Maqolada inson huquqlarini himoya qilishda duch kelinayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari ko'rsatiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Respublikasida huquqiy islohotlar yordamida inson huquqlarini muhofaza etishga qaratilgan tashabbuslarning dolzarbligi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: inson huquqlari, xalqaro hujjatlar, milliy huquq tizimi, sud, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar.

Abstract. This article is devoted to the study of the theoretical and practical aspects of the concept of human rights, the content of the mechanism for its effective protection. The role of human rights in international law, as well as in the national legislative system, and the mutual cooperation of state bodies, non-governmental organizations and civil society institutions in ensuring their protection are analyzed. The article indicates the problems encountered in the protection of human rights and ways to overcome them. Also, the article discusses the relevance of initiatives aimed at protecting human rights through legal reforms in the Republic of Uzbekistan.

Keywords: human rights, international documents, national legal system, court.

Аннотация. Эта статья о концепции прав человека, она эффективна посвящен изучению теоретических и практических аспектов содержания механизма защиты. Анализируется роль прав человека в международном законодательстве и национальном законодательстве, а также взаимное сотрудничество государственных органов, неправительственных организаций и институтов гражданского общества в обеспечении их защиты.



В статье показаны проблемы, возникающие при защите прав человека, и пути их преодоления. Также, в статье говорится об актуальности инициатив, направленных на защиту прав человека с помощью правовых реформ в Республике Узбекистан.

Ключевые слова: права человека, международные документы, национальная правовая система, суд

Inson huquqlari – inson tug‘ilishi bilan unga beriladigan, hayoti davomida hamroh bo‘ladigan va har kimga bir xilda tatbiq etiladigan, universal tusga ega bo‘lgan huquqlar. 1948- yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi ushbu sohaga tamal toshini qo‘ygan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Jahonning ko‘plab mamlakatlarida har yili millionlab insonlar o‘z huquqlari buzilishidan aziyat chekishadi. Shu sababli, inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash doimo dolzarb muammo bo‘lib, samarali himoyalash mexanizmlarini ishlab chiqish har bir demokratik davlat uchun asosiy vazifa hisoblanadi. Inson huquqlari – har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko‘rsatuvchi muhim mezon. Shuning uchun ham inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o‘rin tutadi¹. Darhaqiqat, O‘zbekiston Respublikasi ham mustaqillikka erishgach konstitutsiyasini qabul qildi va ko‘p sohalarda bo‘lgani kabi unda inson huquqlarining ham kafolatlanganligini ko‘rishimiz mumkin. Bundan tashqari, xalqaro huquqiy hujjatlar, jumladan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi pakt hamda Birlashgan Millatlar Tashkilotining bir qator hujjatlari qabul qilindi. Ularda belgilangan inson huquqlarini ta‘minlash bo‘yicha tamoyillar barcha milliy qonunchilik tizimlariga integratsiyalashgan bo‘lib, davlatlar o‘z fuqarolarining huquqlarini himoyalash majburiyatini olgan. Ushbu maqolaning maqsadi ham inson huquqlarining himoya mexanizmlarini tahlil etish, ularning amaliyotda ishlash tartibini ko‘rsatib berishdan iborat.

Usullar

Ushbu maqola inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha milliy va xalqaro huquq mexanizmlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda quyidagi usullardan foydalanildi:

1. Adabiyotlarning tahlili: inson huquqlari to‘g‘risidagi xalqaro hujjatlar (Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, xalqaro paktlar) hamda milliy qonunchilik tizimidagi qonun normalari: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, inson huquqlariga oid qarorlar tahlil etildi.



2. Statistik ma'lumotlarni o'rganish: nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa davlatlarda ham qayd etilgan inson huquqlari buzilishiga oid statistik ma'lumotlar yig'ilib, ularning tahlili amalga oshirildi. Bunda jinoyat ishlari, sud tomonidan chiqarilgan hukmlardan foydalanildi.

3. Nodavlat tashkilotlar, jumladan, Human rights watch, Amnesty International va yurtimizdagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar, ombudsman kabi milliy institutlarning inson huquqlarini himoya qilishdagi roli chuqur tahlil etildi.

Natijalarga ko'ra, Milliy qonunchilikni tahlil etgan holda inson huquqlari to'liq ta'minlangan deb aytishimiz mumkin. Biroq ba'zi hollarda bu huquqlarning buzilish holati ham kuzatilib turadi. Yorqin misol – bu davlat hokimiyati organlari tizimida kuzatiladigan korrupsiya bilan bog'liq holatlar. 2023-yil holatiga ko'ra, Ombudsman 18 000 dan ortiq murojaatlarni ko'rib chiqqan va ularning aynan 30 foizidan oshig'i davlat idoralari faoliyati bilan bog'liq bo'lib, insonlar bu sohada huquq va erkinliklarining buzilishiga duch kelgan. Statistik tahlil natijalari yana shuni ko'rsatadiki, jami murojaatlarning 27,1% fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklariga, 28,7% ijtimoiy huquqlarga, 31,4% iqtisodiy huquqlarga, 10,8 % fuqarolarning murojaat etish va 1,9% ekologik huquqlarga oid². Shunga qaramay, so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangi qabul qilinayotgan qonunchilik hujjatlari huquqbuzarliklarni oldini olib, ijobiy hal etilgan nizolar 30 foizga oshgan. Bu yerda sudlarning o'rni nechog'lik muhim ekanligini ko'rinadi. Ko'pchilik insonlar sudga jazolovchi sifatida yondashadi. Aslida esa sud tizimi inson huquqlarini himoya qilishda nafaqat huquqbuzarliklarni jazolash, balki fuqarolarning asosiy huquqlarini ta'minlash, diskriminatsiya va ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Boshqa bir tomondan olib qarajak, Falastinda bo'layotgan qurolli mojarolar inson huquqlari masalasi bilan bog'liq ko'plab muammolarni keltirib chiqaradi. Falastinda inson huquqlari holatini statistik ma'lumotlar asosida yoritish masalaning jiddiyligini aniqroq ko'rsatib beradi. Amnesty International tomonidan chiqarilgan hisobotlarga ko'ra, butun 2021-yil davomida Isroil armiyasi tomonidan 2510 falastinlik otib o'ldirilgan, 4000 ga yaqin falastinlik yashash joylaridan majburiy ravishda ko'chirib yuborilgan³. Bu kabi holatlar jahonning ayrim mamlakatlarida inson huquqlarining himoylanganlik darajasi yetarli emasligini ko'rsatadi.

Muhokama

Bizga tarixdan ma'lumki, XX asrning 80-yillarida respublikamiz aholisi og'ir



damlarni boshdan kechirdi. "Paxta ishi" nomi bilan boshlangan tazyiq tufayli minglab odamlar ustidan jinoiy ish qo'zg'atilgan, ta'qiqlangan usullar bilan tergov qilingan, bolalar va xotin-qizlarning huquqlari poymol etilgan, markazning ko'rsatmalariga binoan ish tutilib, jinoiy ishlar tuhmat, uydirmalar asosida qurilganligi qonun ustuvorligining toptalganligi oqibatidir⁴. O'sha

davrda mavjud bo'lgan mexanizm siyosiy tizim tufayli inson huquqlarini himoya qilishda samarali ishlamagan. Mustaqillikdan so'ng esa barchasi o'zgardi.

Inson huquqlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari deb nomlangan X bobida belgilab qo'yilganligini ko'rishimiz mumkin. Unga ko'ra: "Insonning huquq va erkinliklarini ta'minlash davlatning oliy maqsadidir"⁵. Shuning uchun inson huquq va erkinliklarini xalqaro standartlarga moslashtirish bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirildi. Birinchidan, inson huquqlari bo'yicha milliy institutlar: Ombudsman va Milliy markazning tashkil etilishi huquqlarni himoya qilish mexanizmini rivojlantirishda yangi bosqichni boshladi. Inson huquqlari va erkinliklarini muhofaza qilishning ta'sirli vositasini barpo etish, xalqaro tashkilotlar hamda huquqni muhofaza qilish tashkilotlari bilan hamkorlikni kengaytirish, davlat muassasalari xodimlari va barcha aholining inson huquqlari bo'yicha madaniyatini oshirish maqsadida, Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlari va boshqaruv tizimini demokratiyalashni qo'llab-quvvatlash dasturiga muvofiq tashkil etilgan Bu institutlar murojaatlarni ko'rib chiqish hamda buzilgan huquqlarni tiklashda amaliy yordam bermoqda. Ikkinchidan esa, sud-huquq tizimining isloh qilinishi orqali himoya mexanizmi yanada takomillashtirildi. Sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, aholining odil sudlovga bo'lgan ishonchini oshirishga qaratilgan mutlaqo yangi bosqichni boshlanishini hayotiy zaruratga aylantirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2016 yilning 21 oktyabrida e'lon qilingan PF-4850-sonli "Sud-huquq tizimini yanada isloh qilish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish chora- tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishiga doir konstitutsiyaviy normani amalda to'la-to'kis ro'yobga chiqishiga zamin yaratdi⁶. Sud orqali himoyalalanish huquqini amalga oshirish tartibi "Fuqarolarning huquqlari va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va protsessual kodekslarda batafsil bayon qilingan. O'z huquqlari va erkinliklari buzilganligidan xabar topgan shaxs sudga murojaat qilishga haqlidir.

Yana shuni aytib o'tishimiz joizki, 1950-yil 10-dekabr Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assemblyasining III sessiyasida butun dunyoda inson huquqlari kuni deb e'lon qilingan. Shu kundan boshlab har yili 10-dekabr sanasi "Xalqaro



inson huquqlari kuni” sifatida nishonlanib kelinmoqda. Buning natijasida inson huquqlari tushunchasi keng tarqalishiga sabab bo‘ldi. Insoniyat tarixida inson qadr-qimmatini tan olish va himoya qilish yo‘lida muhim qadam qo‘yilib, uning ijobiy ta’siri va samarasi hali ham sezilib turibdi

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Davlat idoralariga ishonch ortib borayotgani bilan bir qatorda, ayrim sohalarda inson huquqlari buzilishiga oid muammolar hali ham uchrab turibdi. Shuningdek, jahon miqyosida, jumladan, Falastinda kuzatilayotgan inson huquqlarini toptalishi, zo‘ravonlik bilan bog‘liq holatlar ushbu masalaning global muammolar qatorida ekanligidan darak beradi. Xulosa qilib aytganda, inson huquqlarini ta’minlash borasidagi muvaffaqiyatlar bilan bir qatorda, mavjud muammolarni bartaraf etish, huquqiy institutlar faoliyatini yanada samarali qilish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash kelgusi rivojlanishning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. H.B.Boboyev Inson huquqlari. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 264b
2. <https://www.ombudsman.uz/oz/news/2023/08/16/ozbekiston-respublikasi-olij-mazhlisining-inson-huquqlari-bojicha-vakili-ombudsmanga-2023-jilning1-yarim-jilligida-fuqarolardan-kelib-tushgan-murozhaatlar-va-ularni-korib-chiqish-natizhalariga-bagishlangan-brifing>
3. <https://www.amnesty.org/en/> Amnesty International
4. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (2023) // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari milliy bazasining rasmiy veb-sayti – <https://lex.uz/docs/-6445145>
5. Sud hokimiyati mustaqilligi // O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi veb-sayti – https://constitution.uz/oz/pages/Sud_hokimiyati_mustaqilligi
6. A.Mo‘minov; M.Tillaboyev Inson huquqlari: darslik. – Toshkent: O‘zbekiston, 2013. – 544b.



**JOURNAL OF ANALYTICAL SYNERGY AND
SCIENTIFIC HORIZON (JASSH) VOLUME-1, ISSUE-1,
SERIES A (JANUARY-FEBRUARY)**

TABLE OF CONTENTS

1	Turdiyev Abdulfayz FUQAROLARNING TIBBIY XIZMATDAN FOYDALANISH HUQUQI VA UNING KAFOLATLARI	4-11
2	Shohruh Obidjonovich Abdurasulov DEMOKRATIYA, QANCHA SALBIY TARAFI BO‘LSA HAM, BARIBIR AVTOKRATIYADAN YAXSHIROQ	12-16
3	Arman Yunusov Fayzulla o‘g‘li MUXTOR ASHRAFIY UY MUZEYI: MADANIYAT VA TARIX TUTASHGAN MASKAN	17-22
4	Aziz Yuldashov Avazovich MAHALLIY MUAMMOLARNI HAL ETISH UCHUN QABUL QILINAYOTGAN QAROR VA TASHABBUSLARNING SAMARADORLIGI	23-30
5	Xaydaraliyeva Nafosat Xomidjon qizi BOJXONA FAOLIYATINI AMALGA OSHIRISHDA MILLIY KINOLOGIYA MARKAZI HAMDA XIZMAT ITLARINING O‘RNI	31-37
6	Yuldashev Sherzodbek MUSTAQILLIK YILLARIDA MA‘NAVIY VA MADANIY TARAQQIYOT	38-45
7	Olimova Hulkar YURIDIK FAOLIYATDA QUANTUM MACHINE LEARNING USULLARINING QO‘LLANILISHI	46-55
8	Olimova Hulkar INSON HUQUQLARINI HIMOYALASH MEXANIZMI	56-60
	OUTLINE	61